



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI**



**“ 3-4 YOSHLI BOLALARDA SYUJETLI-ROLLI
O'YINLAR VA ULARNING AHAMIYATI ”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi bitiruvchi 4 - kurs talabasi
Umarova M. _____
ILMIY RAHBAR:
O'q Qodirova SH.X. _____

Termiz – 2017

M U N D A R I J A:

KIRISH.....

**I.BOB. 3-4 YOSHLI BOLALARDA SYUJETLI-ROLLI O'YINLAR VA
ULARNING AHAMIYATI.....**

1.1. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlari mazmuni.....

1.2. Bolalarda syujetli-rolli o'yinlarning ahamiyati.....

**II.BOB. 3-4 YOSHLI BOLALARDA SYUJETLI-ROLLI O'YINLARNI
SHAKLLANTIRISH.....**

2.1. 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirish
vositalari.....

2.2. 3-4 yoshli bolalarga ta'lim–tarbiya berishda syujetli-rolli o'yinlarni amalga
oshirish va unga rahbarlik.....

III.BOB. TAJRIBANI TASHKIL yeTISH.....

1.1. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.....

XULOSA VA TAVSIYALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYHATI.....

Ilovalar.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Jamiyatning ma'naviy takomili unda amalga oshiriladigan ta'lim - tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog'liqdir. SHu boisdan ham ta'limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma - bosqich ta'lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keladi. Hozirgi yoshlarning har jihatdan mukammal barkamol, keng dunyoqarashga, ijodiy tafakkurga, intellektual salohiyatga ega bo'lgan shaxslar qilib tarbiyalashimiz zarur. Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarimizning bilimdonligi, ma'naviy kamoloti, g'oyaviy yetukligi davrimizning dolzarb vazifalaridandir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, -“SHuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashayditi komil insonlar etib voyaga etkazish ta'lim -tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi”¹.

O'zbek xalqi ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avlodlarga insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik birodarlik, mehr-oqibat kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan. Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin - maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'ekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin o'zoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelgan.

¹ Karimov I.A. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch.-T.: O'zbekiston, 2008.- 61 b

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va etuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida: "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi",²- deb ta'kidlangan. Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, uning samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va insonning butun hayot tarziga ijobiy ta'sir qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning eng asosiy va yetakchi faoliyatlaridan biri o'yindir. etakchi faoliyat deb bolaning ayni shu yoshida tez – tez ko'zga tashlanib turadigan xatti – harakatiga aytamiz.

Etakchi faoliyat shunday faoliyatki, bu faoliyat tufayli bolaning psixik jihatdan o'sishida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, mana shunday asosiy faoliyat jarayonida bolaning barcha psixik prosesslari anchagina o'sadi. O'yin bola hayotida mana shunday asosiy faoliyatlardan biridir. O'yin shu qadar universal, shu qadar ko'p qirrali va qudratli faoliyatdirki, barcha yoshdagi bolalarni o'yindan boshqa kamolga yetkazishni tasavvur etish qiyin.

O'yin faqat tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni bilish vositasi bo'libgina qolmay balki, qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli rol o'yinlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni barcha psixologik xususiyatlari shakllanadi. Mana shu nuqtai nazardan o'yin maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yishda markaziy o'rinda turadi.

O'yin jarayonida maktabgacha yoshdagi bolaning barcha psixik jarayonlari tarkib topishida imkon bo'ladi. Chunki o'yin faoliyati bolalarni diqqat va xotirasi, nutqi, hayoli, hissiyoti, mehnatga oid malakalari va qobiliyatlari namoyon bo'ladi.

Bularning hammasi bolalarning aqliy rivojlanishlariga va maktabda o'qishlarining muvoffaqiyatli kechishi imkoni beradi, bu esa mavzuning dalzarb ekanligini belgilaydi.

² O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» qonuni. T., 1997.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Mustaqillik yillarida ushbu muammoga bag'ishlangan bir qator ilmiy – tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Faylasuf va sotsiolog olimlardan S.SHermuhamedov, N.Komilov, M.Imomnazarov, Q.Nazarov, J.Tulenov, A.Begmatov, M.Bekmurodov, I.Karimov, A.Umarov, N.Jo'raev, T.Mahmudov, e.B.YUsupov va boshqalar maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim – tarbiya berishda ijodiy o'yinlarning mohiyati kabi masalalarni atroflicha tadqiq qilganlar.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim – tarbiya berishda 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirishga oid ilmiy – metodik adabiyotlarni nazariy o'rganish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirishning vazifalarini o'rganish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirishning vazifalarini tashkil etish yo'llari, vositalari va shart – sharoitlari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

1. O'rganilayotgan muammo bo'yicha psixologik – pedagogik, metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish.
2. 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirishning vazifalarining pedagogik muammosini dolzarbligini asoslash;
3. 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirishning samarali yo'llari va vositalarini aniqlash;
4. 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirishning vazifalari yo'llari va vositalariga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish

Bitiruv malakaviy ishi metodlari:

mavzuga oid ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish,
kuzatuv,
suhbat,
pedagogik yeksperiment

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi:

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan g'oyalar, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" maktabgacha ta'lim muassasalari mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari o'ziga xos jihatlari, shuningdek mavjud adabiyotlarda o'z ifodasini topgan pedagogik qarashlar. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", hukumat tomonidan ta'lim-tarbiya tizimini boshqarish borasida qabul qilingan huquqiy-me'yoriy xujjatlar, shuningdek tanlangan yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan pedagog olimlarning nazariy qarashlari va zamonaviy ilg'or ta'limotlari, SHarq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik manbalarda ilgari surilgan ta'limotlar.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:

- 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirish vositalari muammosi o'rganildi va bu boradagi ilg'or tajribalar aniqlandi hamda umumlashtirildi;
- 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirish vositalarining mazmuni, samarali usullari hamda uni amalga oshirish vositalari belgilandi;
- 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirish vositalarining samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratildi va ular amaliyotga tatbiq yetildi.

Bitiruv malakaviy ishning to'zilishi: kirish, 3 bob, 5 paragraf, xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-bob. 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlar va ularning ahamiyati.

1.1. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlari mazmuni

Maktabgacha pedagogikada o'yin nazariyasi ijtimoiy faoliyat hisoblanib, mehnatning tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo'ladi. O'yin doimo hayotni aks ettiradi. SHuning uchun uning mazmuni ijtimoiy voqelikda o'zgarib turadi. O'yin – maqsadga qaratilgan o'ylangan jarayondir. O'yin jarayoni asosida o'quv faoliyati rivojlanadi. Bola yoshligida qancha ko'p o'ynasa, maktabda yaxshi o'qishiga va keyinchalik mehnat faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi

O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasiga, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomondan tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

O'yinda yosh organizmga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. SHuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o'yin munosib o'rin egallaydi.

O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ijodiy o'yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurni, xayolni, diqqatni, xotirani faollashtirishni talab qiladi. Bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish va uni so'z bilan ifodalashni o'rganadi.

O'yinda aks ettirilayotgan narsani bilib olishga qiziqish o'yg'onadi. Ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bolalarda kattalarning mehnatiga, ijtimoiy hayotga, kishilarning qahramonona ishlariga qiziqish sari ularda bo'lajak mutaxassislik, yaxshi ko'rgan qahramonlariga taqlid qilish kabi dastlabki orzular paydo bo'ladi.

O'yin - buyumli-predmetli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglashga yo'naltirilgan jarayondir. U o'zining kelib chiqishi ko'ra, yo'nalish va mazmuniga ko'ra ijtimoiy voqelik hisoblanadi. O'yin, bu bola faoliyatining yorqin turi. Unda maqsadning mavjudligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlari natijaning mavjudligi uning o'ziga xosligidir. Xususiyatlarning orasida sabablarning o'ziga xosligi asosiy hisoblanadi. O'yin jarayonida bolaning psixik bilish jarayoni, irodasi, hissiyoti, ehtiyoji va qiziqishlari, ta'sirchanligi – uning butun shaxsiyati shakllanadi. Bola o'yinda amaliy ehtiyojlarga qaram bo'lmaydi. Bunda u o'zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bolalarning o'yinlari o'zining rang – barangligi bilan ajralib turadi.

O'yin o'z mazmuni va tashkil etilishiga ko'ra, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasi, buyumlarning turlari va kelib chiqishiga ko'ra ijodiy va qoidali o'yinlarga bo'linadi.

Tadqiqotchi A.V.YArmolenko yarim yoshlik go'daklarda jozibali narsalarning o'zaro qiyosiy tasnifini tadqiq qilgan. Muallif olgan ma'lumotlarga qaraganda go'dak behisob jismlar orasida insonni (katta yoshli odamlarni) tobora aniqroq, ravshanroq ajrata boshlagan. SHu bilan birga harakat, ko'ruv qo'zg'atuvchisiga, diqqatni to'plash 26 sekunddan 37 sekundgacha harakat qilmayotgan odamga bolaning tikilishi, 34 sekunddan 38 sekundgacha, harakatdagi ko'ruv qo'zg'atuvchisiga qarashi 41 sekunddan 78 sekundgacha, harakatdagi insonga e'tibor berishi 49 sekunddan 88 sekundgacha ortgan.

Tajribada go'dakning harakatlanayotgan odamga diqqatini to'plab turishi 4 marotaba ortgani aniqlangan. Go'dak jonsiz narsalarga qaraganda odamga diqqatini barqaror qaratishi uning kattalarga munosabati o'zgarganidan emas balki ular bilan aloqaga kirishganda sust retseptor o'rnini faolrog'i egallaganidandir. Go'dakda fazoviy tassavurning boyishida jummlalarning idrok qilishidagi farqlashning takomillashuvi muhim vosita xisoblanadi. Hayot tajribasi ortib borishi mashqlar natijasida jismlarning alomatlari va belgilarni o'quvi paydo bo'ladi.

Olimlarning fikricha 3-oydan 6 oylikkacha bolada katta yoshdagi odamlar bilan tanlab munosabatda bo'lishi vujudga keladi. Uch oylik go'dak begonalar

orasidagi tuqqan onasini ajrata olsa, yarim yoshdan boshlab esa begonalar ichidagi qarindoshlarini ham farqlay boshlaydi. M.YU.Kistayakovskaya ma'lumotiga ko'ra, 5-6 oylikda u muomala qilayotgan notanish shaxsga bir oz tiqiladi, keyin yo qo'limsiraydi yoki undan yuzini o'giradi, xatto, qo'rqib yig'lab yuboradi. Bolada o'zini parvarish qilayotgan yaqin kishilariga bog'lanib qolishi sodir bo'ladi. Ana shu sababli onasini yoki enagasini ko'rsa qiyqirib qarshilaydi, unga talpinadi, qo'l-oyog'ini ixtiyorsiz tipirchilatadi. U yarim yoshga to'lganda atrofdagi yaqin kishilari, qarindosh-urug'lariga, xatto qo'ni -qo'shnilarga ham bog'lanib (o'rganib) ko'nikib qoladi. Ta'minan 8-9 oyligidan kattalar bilan dastlabki o'yin faoliyatini boshlaydi.

O'yin faoliyatidagi tabassum, jonlanish, shodlik, tuyg'ulari avval faqat kattalar ishtirokida namayon bo'ladi, vaqt o'tishi bilan o'yinning o'zi bolaga quvonch bag'ishlaydi. Go'dak bir yoshga yaqinlashgan sari kattalarning xatti-harakatlarini izchil ko'zatishdan tashqari unda asta-sekin ularning ko'mak berish ishtiyoqi tug'iladi. Natijada bola individual faoliyat turidan hamkorlikdagi faoliyatga ham o'ta boshlaydi. Ma'lum, hamkorlikdagi faoliyat muloqot ko'lamini kengaytirishga yordam beradi.

Maktabgacha tarbiya davri shaxsning xaqiqiy tarkib topishi (voyaga etish) davri bo'lganligi uchun ham shunday muhim bir davrdir. Hayotning birinchi yili mobaynida bolaning tevarak -atrofdagi muhitga munosabati jiddiy ravishda o'zgaradi. Bola kattalar bilan aloqada bo'lishi natijasida uning o'rgatishga qarab o'z ixtiyorlarini qondiradigan narsa bilan mustaqil harakat qila boshlaydi. Dastlab u kattalar bilan birgalikda, so'ngra ularning raxbarligida harakat qiladi, undan keyin ovqat yeyish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga oid ishlarni mustaqil bajara oladi.

Hayotning 2 yilida kattalar bilan munosabatlarda o'zgarish ro'y beradi. Maktabgacha tarbiya yoshida bola katta odamni o'z xulqi-atvori uchun o'rnak deb xisoblaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshida bola faoliyatining xilma-xil turlari o'yin, mehnat rejimini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat rivojlana boradi va 2 yoshdan boshlab bolalar o'ynaydigan bo'lishadi.

2-yoshda bola rasm sola boshlaydi va jon dil bilan rasm soladi. Rasm solish jarayonida uning idrok etishi aniqlashda u buyumning rangi va shaklini yaxshiroq ajrata boshlaydi, ko'zatuvchanligi rivojlanadi. Bola tasavvurlayotgan narsani o'xshatish maqsadida rasmda aks ettirish zarur bo'lgan narsalarning belgilarini ataylab ajratib ko'rsatadi.

Bola rasm solar ekan, rasmni so'zlar bilan to'ldirib, faollik bilan harakat qiladi, u o'z tasavvurlari asosida keyinchalik katta yosh odamlarning so'ziga binoan rasmlar yaratmog'i mumkin-unda ayrim narsalarning obrazlari vujudga keladi. Rasm solish bilan loy va plastilindan shakllar yasaydi, natijada, bola analizatorlarining rivojlantirishda hamda moslashgan va differensiyallashgan harakatning tarkib topishidan tashqari uning narsa shaklini, xajmini, bir o'lchovda bo'lishi va uni idrok etish takomillasha boradi.

Yirik psixologlar A.Vallon, J.Piaje, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananov, D.B.Elkonin va boshqalarning fikricha, go'daklik davrida bolaning predmetli faoliyati negizida rol o'yin uchun eng zarur sharoitlar asta-sekin vujudga kela boshlaydi. Mazkur olimlar va ularning shogirdlari to'plagan ma'lumotlarga asoslanib rol o'yinni vujudga keltiruvchi muhim omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) go'daklik davridagi predmet bilan uni harakatlantirish orasidagi bog'liqlik o'z ahamiyatini yo'qota boradi, natijada predmet bilan harakat alohida hukm surish imkoniyati tug'iladi va bola ularni alohida umumlashgan tarzda aks ettira boshlaydi;

2) bola haqiqiy o'yinchoqlar o'rniga ularning asl mohiyatini to'la aks ettirmaydigan yasama va beo'xshov nusxalaridan keng foydalanadi (fabrikada tayyorlangan qo'g'irchoq yoki avtomobil o'rniga uyda yasab berilgan shunday narsalar bilan qanoatlantirish);

3) bolaning o'z xatti-harakatlari kattalarning ishlaridan farqlanishiga intilishi, unda o'ziga xos shaxsiy harakat ko'nikmasining paydo bo'lishi;

4) bolada o'z xatti-harakatini kattalar faoliyati bilan qiyoslash, harakatlarining mohiyatini muvofiqlashtirish va aynan to'zilishi jihatidan bir-biriga yaqinlashtirish istagining tug'ilishi;

5) bola kattalarning hayoti va faoliyatida uchrab turadigan, odatdagi turmush muammolarini o'zida aks ettiruvchi, ma'naviy va maishiy ko'rinishga ega bo'lgan hayot jabhasini o'z xatti-harakatida izchil ravishda tiklashga (ularning rolini bajarishga) urinishadi o'yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M.Aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin o'zidan-o'zi vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit mavjud bo'lishi kerak;

a) bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to'g'risidagi xilma-xil taasurotlar tarkib topishi;

b) har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muxayyoligi;

v) bolaning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish uslubi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

SHunday qilib, psixolog adabiyotlar tahliliga tayanib maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o'zaro muomalasiga qiziqadi;

2) bolalar rolli o'yinda atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo'shqin xis-tuyg'uli jihatlarini aks ettiradilar;

3) rolli o'yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o'z istagini amaliyotga tadbqiq qiladi;

4) kattalar hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo'lsa ham, umuman uning chinakkam shaxsiy hayotida o'chmas iz qoldiradi.

Maktabgacha yosh davrida o'yinning takomillashuvi. Psixologiya qabul qilinganidek, rolli o'yin faoliyati syujet va mazmundan tashkil topadi.

Odatda syujet deganda, o'yin faoliyatida bolalar aks ettiradigan voqelikning doirasi tushuniladi. O'yin syujeti turli davrga, sinfiy xususiyatga, oilaviy turmush tarziga, geografik va ishlab chiqarish sharoitlariga bog'liq holda yaratiladi. Bola munosabatga kirishadigan voqelik doirasi qanchalik tor, cheklangan bo'lsa, o'yinnig syujeti shunchalik xira va bir xil ekanligini aks ettiradi.

O'yinlarning syujeti xilma-xilligiga qaramay, ularni maxsus guruhlarga birlashtirish imkoniyati mavjuddir. Masalan, yirik psixolog ye.A.Arkin o'yinlarning quyidagi tasnifini tavsiya qiladi:

1) ishlab chiqarishga (texnikaga); sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, kasb-hunarga oid o'yinlar;

2) maishiy va ijtimoiy siyosatga ro'zg'or: maktabgacha ta'lim muassasasiga, maktabga, kundalik turmushga oid o'yinlar;

3) harbiy: urush-urush o'yinlari;

4) drammalashtirilgan: kino, spektakl va boshqalarga oid o'yinlar. Biz shu tasnif haqida L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin singari psixologlarning tanqidiy mulohazalariga to'la qo'shilmiz, chunki harbiy va drammalashtirilgan o'yinlarni ham ijtimoiy-siyosiy guruhga kiritish mumkin. Bizningcha, D.B.Elkoninning tasnifi ma'quldir. U maktabgacha yoshdagi bolalarga xos rolli o'yinlarning syujetiga ko'ra uchta guruhga ajratishni tavsiya qiladi:

1) maishiy mavzu syujetiga oid o'yinlar;

2) ishlab chiqarish syujetiga maaluqli o'yinlar;

3) ijtimoiy-siyosiy syujetli o'yinlar.

Muallif ayrim o'yin turlari maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha bo'g'inlariga mosligini, syujetlar maishiydan ishlab chiqarishga qarab va undan ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettirishga qarab rivojlanishini alohida uqtiradi. Uning fikricha, o'yin syujetidagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, turmush tajribasi kengayishi, uning katta yoshdagi odamlar turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog'liqdir. Darxaqiqat, o'yin syujetining o'sishi turmushning tobora yangi qirralarini aks ettirish bilan cheklanib qolmay, muayyan syujetning o'ziga xos boshqa ko'rinishlari bilan boyishi sababli ham amalga oshadi.

Ma'lumki, 1-3 yosh bolalar hali tashqi muhitni juda oz o'zlashtirganlar. Ular hali hattoki narsalarning rangini, hajmini va boshqa jihatlarini yaxshi ajrata olmaydilar. SHuning uchun ularga ko'g'irchoq bilan birga har xil rangli qiyqim, laxtak matolar ham berish kerak. Ayniksa, qiz bolalar o'z ko'g'irchoqlarini har xil rangli matolarga o'rab, ro'mol qilib o'ratib mashq qiladilar. O'g'il bolalarga esa, har xil rangli, bir-birining ichiga sig'adigan quticha o'yinchoklarni berish foydalidir.

Bola 1-yoshdan 3- yoshgacha narsalar, bilan harakatlar qilishni egallaydi o'yin bolaning harakatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga yordam qiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning (4 yoshdan boshlab) yetakchi faoliyatlarga bo'lib o'ynaladigan, ijodiy o'yindir. O'yin jarayonida bola muayyan rollarni bajarishni o'z zimmasiga olishadi hamda o'yin sharoitida odamlar faoliyati va munosabatini esga keltirishadi. 3-4 yashar bolalarda birgalikda o'ynaladigan o'yinlar hali bo'lmaydi. Dastlab buyum, o'yinchoq rolini go'yo esga solganday bo'ladi, so'ngra bola o'yinda ixtiyoriy suratda o'z zimmasiga ma'lum rolni oladi. Maktabgacha tarbiya yoshida bolaning kattalar tomonidan uyushtirilib, muayyan maqsadga qaratilgan ijodiy faoliyati uning taraqqiyotga qancha ta'sir ko'rsatadi.

3-4 yashar bola narsalar o'rtasidagi bog'lanishni farqlab oladi va o'z faoliyatini planlashtiradi, bu faoliyat asta-sekin ijodiy faoliyatga aylanadi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bu o'yindir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyati masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmokda. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Maktabgacha yoshdagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa harakterliki bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalarga mansub bo'lgan o'zining kuchi ham

yetmaydigan, xaddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi.

SHuni ham aytib o'tish kerakki, fan-texnika mislsiz rivojlangan bizning hozirgi zamonamizdagi yaratilayotgan, xayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib har xil hayoliy narsalarni o'ylab chiqaradilar (uchar ot, mashina odam, gapiradigan daraxt kabi). Bundan tashqari, bolalarning turli hayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni bildiradiki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlari talab qilayotgan narsalarni ham aks ettiradilar.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida har xil hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin: odamning (shu jumladan bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va xodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki faol hamda ijodiy, yaratuvchan, o'zgartiruvchan jarayondir.

Bolalar o'yin faoliyatlarining yana bir ajoyib hususiyati shundan iboratki, o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollari ko'pincha umumiylik harakteriga ega bo'ladi. Bunda bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, shifokorning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi juda cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar. (Masalan, onasini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabi). O'rta, katta maktabgacha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik harakteriga ega bo'la boshlaydi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning o'yinlari atrofdagi narsa va xodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Boshqacharoq qilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya qurolidir. Bolalarning o'yinlari

orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o'zlari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorlik o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli, rolli o'yinlarda bolalar asosan o'zlari har kuni ko'rayotgan va ko'zatayotgan kattalarning xatti –harakatlarini aks ettiradilar.

4-5 yoshli bolalarning o'yini asta–sekinlik bilan jamoaviy harakterni ola boshlaydi. Bolalarning individual xususiyatlarini, xususan ularning jamoaviy o'yinlari orqali ko'zatish qulaydir. Bu o'yinlarda bolalar kattalarning faqat predmetlarga munosabatini emas, balki ko'proq o'zaro munosabatlarini aks ettiradilar. SHuningdek, jamoaviy o'yinda bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar.

Katta maktabgacha yoshida syujetli-rolli o'yinlar rivojlanadi, lekin endi bu o'yinlar o'z mazusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda liderlik yuzaga kela boshlaydi, shuningdek tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shug'ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san'atning ham ahamiyati juda katta. Bolaning tasavvur etish harakteriga qarab uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Katta maktabgacha yoshidagi bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiy xolatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizishga ham nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o'yin faoliyatining o'ziga xos bir shakli bo'lib hisoblanadi. Bola avvalo ko'rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o'zi biladigan, xotirasidagi va o'zi o'ylab topgan narsalarni chizadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari xaqida gapirar ekanmiz, albatta ularning o'yinchoqlari masalasiga ham to'xtab o'tish kerak. Bolalarga o'yinchoqlarni berishda ularning yosh xususiyatlarini, taraqqiyot darajalarini va ayni paytda ularni ko'proq nimalar qiziqtirishini hisobga olish kerak.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallash uchun odam avvalo yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va yelementar tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola o'yin faoliyati orqali erishadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, hayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam qiladigan o'yinchoqlar berish lozim. Bu yoshdagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ko'zga yaxshi tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qilmaydilar.

Diqqat har kanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. SHuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati ham benihoya kattadir. Maktabgacha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin juda katta ahamiyatga ega. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyda to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar.

Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlari va bolaning oldiga qo'yilgan yangi talablar asosida takomillasha boradi. Maktabgacha yoshidagi bolalar o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar. Maktabgacha yoshidagi bolalar tafakkuri va uning o'sishi o'ziga xos xususiyatga ega.

Tafakkur bolaning maktabgacha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, maktabgacha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi o'sgan bo'lishi, uchinchidan esa, maktabgacha yoshidagi bolalarning juda ko'p erkin mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Maktabgacha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining

faollashayotganligidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik susaya boshlaydi, nima yomonligini, qanday harakat to'g'ri-yu, kanday harakat noto'g'riligini aniqlashga intiladilar. Bu ishda bolalarga hamisha yordam berish kerak. Ularning bunday harakatlarini qo'llab - quvvatlash lozim.

O'yin o'z mazmuni va tashkil etilishiga ko'ra, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasi, buyumlarning turlari va kelib chiqishiga ko'ra ijodiy va qoidali o'yinlarga bo'linadi.

Ijodiy o'yinlar bu bolalarning mustaqil ijodiy, o'zlari o'ylab chiqqan o'yin majmuidir. Bunda bolalar o'z taassurotlari, borliq hayotdagi tushunchalari va unga bo'lgan o'z munosabatlarini aks ettiradilar. Ijodiy o'yinlar quyidagi turkumlarga bo'linadi:

- ijodiy;
- dramalashtirilgan;
- qurilish;
- tabiat materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar.

Ijodiy o'yinlar va ularga rahbarlik. Ijodiy o'yinlar boshqa tur o'yinlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. O'yin mazmunining o'ziga xosligi.
2. Rollarning mavjudligi.
3. Hayoliy vaziyatning mavjudligi.

O'yin mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Pedagog va psixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kattalarning ijtimoiy hayoti o'zining rang-barang ko'rinishlari bilan ijodiy o'yinlarning mazmuni bo'lib xizmat qilar ekan.

Ular bolalar kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turi o'yin ekanligini asoslab berdilar.

Ijodiy o'yinlar ijodiyliklari va mazmunining rang-barangligi, ularni tavsiflash zaruratini keltirib chiqaradi. Ijodiy o'yin faoliyati tizimida asosiy komponent sifatida o'z ichiga personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar

munosabatini oladi. Ijodiy o'yinlarda hayoliy vaziyatning mavjud bo'lishi bolaning tafakkurini o'stirib ijodiy va rollar o'yin mazmunini takomillashtiradi. Ijodiy ijodiy o'yinlarning o'ziga xos sabablari mavjuddir. Buning eng asosiy sababi – bolalarning kattalar bilan birgalikda ijtimoiy hayot kechirishga intilishidir. Bu sabablar bolaning yoshiga karab, o'yin mazmuniga karab o'zgarib boradi. Kichik yoshdagi bolalarda asosiy sabab buyumlar bilan bajariladigan qiziqarli harakatlar bo'lsa, bola katta bo'lgan sari o'yindagi kattalar harakatlarini va munosabatlarini qayta aks ettirish asosiy sabab bo'lib xizmat qiladi. SHunga ko'ra, o'yinlarni ijodiyi, mazmuniga ko'ra 3 guruhga bo'lish mumkin.

1. Maishiy o'yinlar (oila, maktabgacha ta'lim muassasasi va boshqa voqielikni aks ettiradigan).
2. Mehnat mavzuidagi o'yinlar (oila va kattalar mehnatida ishtirok etish, o'z-o'ziga xizmat va boshq.).
3. Ijtimoiy mavzudagi o'yinlar.

Bolalar rollarni tanlab o'ynaydilar. Ijodiy o'yinlarda xatti-harakatlarni, qoidalarini egallash asosida, rolda mujassamlashtirilgan ahloqiy qoidalar ham o'zlashtiriladi. O'yinda kishilar turmushiga, ishlariga, jamiyatdagi xulq-atvor me'yor va qoidalariga ijobiy munosabat shakllantiriladi. Xuddi shu jarayonda o'yin muomala madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida ham yuzaga keladi. Aqliy tarbiyaning asosiy vositalaridan biri bu ijodiy o'yin hisoblanib, unda bola atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni aks ettirib, hayolan ularni qayta tiklaydi. O'yinning hayoliy vaziyati bolaning aqliy faoliyatining rivojlanishiga doimo ta'sir ko'rsatadi.

D.B.Elkonin ijodiy o'yinni birgalikda o'ynaladigan o'yinda tasvirlanayotgan voqealarga, harakatlarga, buyumlarga nisbatan o'z nuqtai nazarini boshqalar nuqtai nazari bilan jamlash masalasi shakllanishi natijasida yalpi tafakkur bosqichiga o'tishga imkon beruvchi bilishga oid jarayon yuz berishini ta'kidlab o'tgan.

O'yinning san'atga yaqinligi ijodiy o'yinlardan estetik tarbiyada foydalanish imkonini yaratadi. Bola o'yinidagi ijodkorlik bilan bog'lik bo'lgan tuyg'ular estetik tuyg'ularga yaqin turadi. O'yinda bolaning katta harakat tajribasi shakllanadi. Turli harakatlarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, bola rolga kiradi, o'z roliga oid hatti-harakatlarni amalga oshirish uchun tasvirlayotgan rollarning o'ziga xos xususiyatlarini ongli ravishda ifodalaydi.

Ikki yoshdagi bolalar hayotida ijodiy o'yinchoqlar bilan juda oddiy o'yinlar o'tkaziladi. Bolalar bu o'yinchoqlarni qo'lda ushlab yuradilar, siqib ko'radilar, yerga tashlab ko'radilar, o'yinchoqlarni g'ildiradilar, o'yinchoqda nima tasvirlanganligiga e'tibor bermaydilar. Bu yoshda kundalik hayotda tevarak – atrofdagi katta kishilar va bolalar harakatini ko'zatib borishni, bu harakatlarni o'z o'yinlarida aks ettirishni o'rgatish lozim: qo'g'irchoqni ovqatlantirish, uyquga yotqizish va boshq.

Bu yoshda buyumli o'yin bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1 bosqichda bolalar o'yinchoqlar bilan kattalar harakatlariga taqlid qiladilar.

2 bosqichda o'zlashtirgan harakatlarni mustaqil bajara boshlaydilar, so'ngra bu harakatlarni boshqa buyumlarga ko'chiradilar.

3 bosqichda tasviriy o'yin vujudga keladi, uning mazmunini shartli qurollar bilan bajariladigan harakatlar tashkil qiladi.

Bola kundalik hayotda ko'zatgan buyumlar bilan bajariladigan harakatlarga taqlid qiladi (gazeta o'qiydi, yer chopadi, kir yuvadi), bularning hammasi ijodiy – rol o'yin uchun sharoit yaratadi.

Uch yoshga qadam qo'ygan bolalar bilan suhbatlar, ko'zlatishlar o'tkazish, hikoya va ertaklar o'qib berish, maslahat berish va o'yinlarga qiziqtirish kerak. O'yinda bolalarni katta ish-harakatining faqat tashqi tomonigagina taqlid qildirmay, balki ularni odamlarga, mehnatga bo'lgan munosabatlariga ham taqlid qildirish, bolalarda ahillik bilan uynay olish, rollarni taqsimlay bilish, ko'zlangan maksadga erisha olish, tortinchoq va uyatchan bolalarga loyiq rollarni taklif qilib, ularning o'yinga qo'shilishiga

yordam berish kerak. Bolalarda hayol tasavvurlarini o'stirish ularda mustaqil biron yangi o'yinni ijod etish, bu o'yinga kerakli narsalarni tanlash, binolar qurish, ba'zi o'yinchoqlarni o'z qo'li bilan yasash, badiiy mashg'ulotlarda orttirgan malakalarini o'yinda qo'llash, qo'shiqlar aytish, she'r o'qish, chizgan rasmlardan va yasagan narsalardan foydalanish istagini uyg'otadi.

Jamoa o'yinining paydo bo'lishi uning mavzui va mazmunini ham, to'zilishini ham tez rivojlantirish va o'zlashtirish imkonini yaratadi. Bolalar o'yinlari mavzuining o'zgarishida maishiy o'yinlardan mehnat, ishlab chiqarish ijodiyiga ega bo'lgan o'yinlarga, so'ng turli ijtimoiy hayot voqea va hodisalari aks ettiriladigan o'yinlarga o'tiladi o'yinning mazmuni ham rivojlanadi.

Katta yoshli bolalar hayotida harakatlar qatorida xilma – xil ijtimoiy munosabatlar, xatti-harakatlar ham aks eta boshlaydi. O'yinlar mavzui doirasining kengayishi, ular mazmunining teranlashuvi, o'yin shakli va to'zilishining o'zgarishiga olib keladi.

Syujetli va rollarga bo'lib o'ynaladigan o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarni yeng asosiy o'yin formasidir.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'proq «bog'cha-bog'cha», «poezd-poezd» kabi qiziqarli bo'lgan o'yinlar o'ynaydi. Lekin turli yoshdagi bolalarning o'yinlari bir xil bo'lsa ham syujeti har xil bo'ladi. Masalan: kichik gurux bolalari «bog'cha-bog'cha» o'yinini uynar ekan ular peshinga ovqat pishiradilar, nonni kesadilar, idishni yuvadilar. Ammo kesilgan non qo'g'irchoqlarga berilmaydi, pishirilgan ovqat tarelkaga so'zilmaydi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga sensor tarbiya berishda didaktik o'yinlarni roli katta. Didaktik o'yinlar maktabgacha ta'lim muassasasida maxsus dastur asosida olib boriladigan mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli o'tkazishga, katta gurux bolalarini maktabdagi o'qish faoliyatiga tayyorlashga katta yordam beradi.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlari ichida harakatli yoki qoidali o'yinlar ham muhimdir. Chunki harakli o'yinlar bolalarni jismoniy jihatdan chiniqtiradi, dadil, qo'rqmas, yepchil bo'lishga undaydi.

Bolalarga tashabbuskorlik, jamoalizm, burch xislarini o'stiradi. Bunga «Kim birinchi», «koptok», «oq quyoncha o'tiribdi», «etib ol» o'yinlari kiradi.

Harakatli o'yinlar asosan sayr va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'tkaziladi.

4. Drammalashtirilgan o'yinlarni ham bolalar sevib o'ynaydilar. Bu o'yinlar turli xil yertak va xikoyalar saxnaga qo'yiladi, rollarni esa bevosita bolalarni o'zlari ijro yetadilar. Masalan: «Qizil shapkacha», «Tormoq», «SHolg'om» drammati o'yinlar bolalarni nutqi hayol va kobiliyatlarini tarkib toptiradi.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlari orasida qurish-yasash o'yinlari hammaga ma'lum bir maksadga qaratilgan bo'ladi.

O'yin faoliyati bolalarni individual ravishda o'rganish imkonini beradi. Ayrim bolalar jamoa bo'lib uynashni yoqtiradilar bu psixologik bolani umumiy taraqqiyotiga ta'sir yetadi. SHuning uchun tarbiyachilar jamoa o'yinlarga tortishlari kerak.

Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik proseslari bilan birlikda individual (shaxsiy) hislatlari ham shakllanadi. Mana shu nuqtai nazardan o'yin maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim – tarbiya ishlari orasida eng asosiy, markaziy o'rinda turadi. Demak, maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim – tarbiya ishlarini muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir.

1.2. Bolalarda syujetli-rolli o'yinlarning ahamiyati

O'yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o'yinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A. P. Usova shunday degan edi: «Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish — ularni to'g'ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'rganmaydi, balki o'z hayoti bilan yashaydi».

O'yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Nonushta bilan mashg'ulot o'rtasida bolalar o'yiniga 8—10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'pincha avval boshlagan o'yinlarini O'yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o'yinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A. P. Usova shunday degan edi: «Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish — ularni to'g'ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'rganmaydi, balki o'z hayoti bilan yashaydi».

O'yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Nonushta bilan mashg'ulot o'rtasida bolalar o'yiniga 8—10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'pincha avval boshlagan o'yinlarini davom ettiradilar. Sayrda bolalarning o'ynashlari uchun 1 soat—1 soatu 20 daqiqa vaqt ajratiladi. Kunduzgi uyqu va kechki nonushtadan keyin ham bolalar o'yiniga vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'proq syujetli-rolli o'yinlarni, qurilish materiallari, qo'g'irchoqlar bilan, stol usti o'yinchoqlari o'ynashlari mumkin. SHu bilan birga ermak o'yinlardan ham foydalaniladi.

Ammo o'yin bilan ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik bola ulg'aygan sari o'zgarib boradi. Kichik guruhda o'yin ta'lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg'ulotlarda ta'limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o'zlarida maktabdagi o'qishga ishtiyoq o'yg'onib qoladi.

Ammo bolalar uchun o'yinning qadri yo'qolmaydi, balki mazmuni o'zgaradi. endi bolalarni ko'proq fikriy faollikni talab etuvchi o'yinlar, sport tarzidagi (musobaqa jihatlari bor) o'yinlar qiziqтира boshlaydi.

Pedagogika fani o'yinni bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblaydi. O'yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, malaka va ko'nikmalari, harakat usullarini, ahloq normalari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar.

O'yinda bolaning o'z tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi.

Bolalarning o'yinda birlashishlari bir necha bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich bolalarning «yonma-yon» o'yinining shakllanib borishidir. Bu ilk yoshli va kichik guruh bolalariga xosdir. Bunday o'yinda bolalar o'rtog'ining o'yiniga qiziqish bilan qaraydilar, birga o'ynab, «yonma-yon» o'tirganlaridan xursand bo'ladilar. Bu yoshdagi bolalarning o'yini kattalar rahbarligida ularning hulqiga ta'sir etish orqali tashkil etiladi.

Ikkinchi bosqichda bolalar o'yin orqali mexanik ravishda birlasha boshlaydilar. Bunday birlashishlar qisqa muddatli bo'ladi. Bu davrga kelib bolalardan kimning qaysi o'yinga qiziqishi aniq bo'la boshlaydi, bir xil bolalar didaktik o'yinga qiziqsalar, ikkinchilari harakatli o'yinni yoqtiradilar, uchinchilariga ijodiy o'yinlar ma'qulroq bo'ladi va h.k. Tarbiyachining vazifasi bolalarni u yoki bu o'yin bilan uzoqroq o'ynashga o'rgatishdir.

Uchinchi bosqichda o'ynovchi bolalar guruhi bir-biriga do'stona munosabat va o'zaro yoqtirish orqali birlashadilar. Birga o'ynobchilar soni ko'p bo'lmasa-da, bolalar qiziqib o'ynaydilar. Bu davrga kelib bir-birlariga baho berish umumiy talabi yuzaga keladi. Bu bosqichda tarbiyachi bolalarning o'yinda birlashishlarining ahloqiy asosini yuzaga keltirishi, ularda o'zaro yordam, o'rtoqlik, do'stlik munosabatlarini shakllantirishi lozim.

Bolalarning o'yinlari qiziqarli, mazmunli bo'lishi uchun o'yinning hamma turlaridan o'rinli foydalanilsa, bolalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishiladi.

O'yin mavzui bolalar olgan taassurotning kuchli, bolalarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Uyinda bolalar aks ettiradigan ijtimoiy-siyosiy voqealar bolalarning bilim doirasi va hayotiy tajribasining kengayib borishiga bog'liq bo'ladi.

Syujetli-rolli o'yinlarning mazmuni va mavzusi o'zgarishi bilan bir qatorda uning tuzilishi va o'yin shakllari o'zgaradi, bolalarning mustaqilligi va tashabbuskorligi ham o'sib boradi. Avvaliga bolalar o'z-o'zicha alohida-alohida o'ynaydilar. Sekin-asta rolli o'yinlarning paydo bo'lishi, o'yinda kishilar o'rtasidagi munosabatni aks ettirish birgalikda bajariladigan o'yinni keltirib chiqaradi. Avvaliga katta bo'lmagan guruhchalar 2—3 kishidan bo'lib o'ynashadi, katta va tayyorlov guruhlariga kelib kattaroq jamoaga birlashadilar.

O'yinda har xil rollar orqali o'zaro munosabatda bo'lish bolalarda o'rtoqlik munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. O'rtoqlik munosabatining dastlabki xususiyati bolalarda maslahatlashib, kelishib olishda namoyon bo'ladi. Kelishib olish avvalo o'yin mavzusini belgilab olishdan boshlanadi. Keyin rollarni taqsimlashda o'yinchoqlar tayyorlashda va boshqa sohalarda kelishib olinadi.

O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti –harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob – axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida tabiblik yoki muallimlik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o'yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlarni shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo'ladi. Bolalar uchun o'yin mazmunining hech bir chegarasi yo'q.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga etishiga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. O'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga o'z-o'ziga

munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (xavas) lari bevosita o'yinda ifodalanadi. O'yin bolalarning hayolparastligi tufaydi narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma'qul tomonga "o'zgartirish" imkoniyatini beradigan faoliyatdir.

Bolaning aqliy o'sishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib o'tish kerakki narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, sub'ekt o'yin paytida faol harakat kilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan fikr yuritilayotgan jismlar moxiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o'tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga hayoliy ko'rinishga o'tishida unga tayanch nuqtasi bo'lishi kerak, voholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o'tovchi narsalarning aksariyatidan o'yinda bevosita, ob'ekt sifatida foydalaniladi. O'yin faoliyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to'g'risida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bohliq jihatini aks ettiradi. YUqorida aytilganidek, narsa bilan o'yin harakatlarining takomillashuvi harakat shakli xususiyati, bosqichi kabilarni qisqartirish va umumlashtirish hisobida amalra oshiriladi. O'yin harakatlarining kisqarishi va umumlashuvi ularning aqliy ko'rinishidagi mantiqan izchil yig'iq shaklga o'tishning asosini tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyati bilan birga ta'limiy mashg'ulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof hayotdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni lug'at boyligi, tovushlarni to'g'ri talaffo'z qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashlikka o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, yelementar mavhum tushunchalarga ega bo'lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilishi materiallar bilan ishlash, mo'zika va boshqa mazmundagi mashg'ulotlar bolani aqliy jihatdan maktab ta'limini egallashga tayyorlash imkonini beradi.

O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil yetadi. Mehnat va ta'lim bilan o'zviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ulanadigan ko'pchilik jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok yetadi, o'ylaydi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, yetnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o'z o'yinlarida ovchilik, urush, dexqonchilik ishlarini aks yettirganlar. Masalan, o'sha davrdagi ba'zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o'yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar yedi.

YA.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega- deb yozgan yedi K.D.Ushinskiy, - insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy yehtiyoji ifodalangan».

YAn Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o'yin – bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavv urlar doirasi kengayadi va boyidi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. YA.A.Komenskiy oyinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sfiarti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga ye'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni masalahat bergan yedi.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish "MTM ta'lim va tarbiya dasturi"da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir yetgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani ko'zatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin.

SHaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yiniga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlari ni rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil yetilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi.

O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, Maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya ishida, ahloqiy, mehnat va yestetik tomonlarni tarbiyalashda katta o'rin tutadi.


O'yinda bola organizmiga xos bo'lgan talab va yehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlilik, tetiklik, kuvnoqlik tarbiyalanadi. SHuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o'yin munosib o'rin egallaydi.

O'yin bolalarga yestetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo'llaniladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, voqealikni obrazlar, rollar orqali ham aks ettiradilar. O'yinda bolalarning avval olgan tassurotlari orqali obraz yaratishlari–hayol juda ham katta ahamiyatga ega. Bolalar juda ko'p o'yinlarda avval o'rgangan ashula, she'r, raqs, topishmoqlardan keng foydalanadilar. Bundan tarbiyachi bolalarda yestetik did, zavqni tarbiyalashda foydalanadi.

O'yin vaqtini tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Nonushta bilan mashg'ulot o'rtasida bolalar o'yiniga 8-10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'pincha avval boshlagan o'yinlarini davom ettiradilar. Sayrda bolalarning o'ynashlari uchun 1 soat – 1 soat 20 minut vaqt ajratiladi. Kunduzgi uyqu va kechki nonushtadan keyin ham bolalar o'yinga vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'proq syujetli- rolli o'yinlarni, qurilish materiallari, qo'g'irchoqlar bilan, stol usti o'yinchoqlari o'ynashlari mumkin. SHu bilan birga ermak o'yinlardan ham foydalaniladi.

Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan tassurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o'yin bolalarning mustaqil o'yini bo'lib, o'yinning mazmunini ular o'zlari o'ylab topadilar. Bu o'yinda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchilik va ijodqorlik qobiliyatlari to'laligicha namoyon bo'ladi. Ammo o'yinda hayotiy taassurotlar aynan aks yettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab chiqiladi. Bu bolalarning o'yin g'oyasini yaratishlarida, uning mazmunini to'zib, tasvirlovchi vositalarni tanlashlarida va shunga o'xshashlarda namoyon bo'ladi.

Ijodiy o'yinlar turlari



Syujetli-rolli o'yin - maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy o'yin turlaridir. Syujetli-rolli o'yin o'z xususiyatiga ko'ra aks yettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuniga manba bo'lib xizmat qiladi.

Bolalarning tevarak-atrofdagi hayotdan, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o'yinda qayta ishlanadi, to'ldiriladi, sifat jihatidan o'zgartiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir.

Bolalar o'yinining o'ziga xos tomoni unda tasvirlovchi vaziyatlarning mavjudligidir. Tasvirlovchi vaziyat bolalarga o'yin jarayonida yuklangan rol va o'yin syujetidan tashkil topadi va har xil buyumlardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi.

O'yinning syujeti – bir-biriga hayotiy aloqador bo'lgan qator voqea-hodisalar yig'indisidir.

Rol syujetli-rolli o'yinning asosiy zanjiri hisoblanadi. O'yin bolada qanoatlanish, xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg'otadi, bola organizmidagi hayotiy faoliyatni yaxshilaydi.

Bola o'ynayolganda har xil harakatlar qiladi: yuguradi, sakraydi, ingichka taxta ustidan o'tadi, yengashdi, yuqoriga tirmashib chiqadi va hokozo.

Bu harakatlarning hammasini bola bimalol, o'z xoxishi bilan bajaradi, natijada bolaning muskullari pishiydi, u harakatni yengilroq, chaqqonroq bajaradigan bo'lib qoladi.

Bolaning aqliy tomondan rivojlanishi uchun ham o'yin katta ahamiyatga ega. O'yin natijasida bolaning bilimi kengayib boradi. Rolli o'yinlar bolaning ko'zatuvchanligini, qiziquvchanligini, bilish doirasini rivojlantiradi, boyitadi.

O'yinda bola o'z oldiga maqsad qo'yadi, bu boladan aql, idrok ishlatishni talab qiladi, topag'onlikka o'rgatadi. O'yin jarayonida juda ko'p gaplashishga, tortishishga, baxslashishga, aytib berishga to'g'ri keladi. Bolalar o'zi yasayotgan narsalarini yaxshiroq yasash, qurish uchun juda ko'p o'ylab, fikrlashishlariga to'g'ri keladi. Bular hammasi bola tafakkuri va hayolining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Bola o'z o'yinida

borliqni aks yettirib, olgan rolining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu hissiyotni boshdan kechiradi.

Masalan, Dilnoza ona-bola o'yinida ona rolini o'ynayotib, bolalarini ovqatlantiradi, kiyintiradi, ular bilan yaxshi munosabatda bo'lib yerkalaydi, ular bilan gaplashadi, kitoblar o'qib beradi. Bu o'yin bolada muloyililik, g'amxo'rlik, e'tiborlilik kabi yaxshi hislarni uyg'otadi.

Rolli-syujetli o'yinlarning o'ziga xos xususiyati. Rolli o'yinlarning boshqa o'yinlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga egaligi ularda syujet, rol va hayol qilingan vaziyatning mavjud bo'lishidir.

Bolalar biror narsa yoki voqea to'g'risida yetarlicha tasavvurga ega bo'lgandagina syujet, fikr, yuzaga keladi. Masalan bolalar "paroxod" o'yinini o'ynamoqchi bo'lishdi. Bunga o'yinning qanday borishi to'g'risida syujet kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog'liq bo'ladi. Bolalarda avval g'oya paydo bo'ladi, keyin mazmun rivojlanadi. Ba'zan bolalar o'yinning qanday borishini oldindan belgilab oladilar. Masalan, Afrikaga "bormoqchi" bo'lsalar, sayyohat vaqtida qilinadigan ishlarni oldindan belgilab oladilar.

Bundan ko'rinib turi bdiki, rolli o'yin jamoatchilik xususiyatiga ega, chunki bolalar bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar.

Rolli o'yinda har bir bola o'ziga olgan rolni bajaradi masalan, ona, shafyor, tarbiyachi, enaga, artist va h.

Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida asosan syujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarni o'ynaydilar. Rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarda bolalar tevarak atrof-muhitdagi narsalarni aks ettiradilar. Ular o'zlarining turli o'yinlarida kattalarning oilaviy hayot sharoitlariga doir hodisalarni, mehnat faoliyatlarini, yirik tarixiy hodisalarini, kishilar orasidagi muloqot munosabatlari, urf - odatlar, bayramlarni aks ettiradi.

Ko'pincha bolalar aks ettirayotgan tashqi muhit hodisalari ular o'yin faoliyatining syujetini tashkil etadi. Bolalar aks ettirayotgan muhit qanchalik keng va xilma-xil bo'lsa, bolalar o'yinining syujeti ham shunchalik keng va xilma - xil bo'ladi. Ana shuning uchun o'z - o'zidan ma'lumki, kichik maktabgacha yoshdagi

bolalar o'yinlarining syujeti nihoyatda tor bo'ladi. Bolalar o'sib ulg'aygan sari ular o'yinining syujeti tobora boyib, xilma - xillashib boradi. O'yin mazmuni sifati syujetlar xilma - xilligi bolalarning umumiy psixik taraqqiyot darajasiga bog'liqdir.

Bolaning umumpsixolog taraqqiyoti faqat o'yin jarayonidagi (A.Leontev) amalga oshirishini inobatga olib ularning o'yinlarining mazmunan boyitishiga katta e'tibor qaratishimiz lozim.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning **syujetli va rollarga** bo'linib, o'ynaladigan o'yinlari deyarli hamma vaqt jamoa holda amalga oshiriladi. Syujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlar bolalarning ko'pgina psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'yin sharoitining o'ziyiq bolalar diqqatini atrofdagi narsa va hodisalarga faol yo'naltirishini talab qiladi. Bu esa, o'yin faoliyati davomida bolalarni nihoyatda faollashtiradi, ya'ni ular ko'zatuvchan, tez esda olib qoladigan, har bir narsani atroflicha va chuqur tahlil qiladigan bo'ladilar.

Syujetli va rollarga bo'linib, o'ynaladigan o'yinlar o'yin jarayonida bolalarning bir birlari bilan faol munosabatda bo'lishlariga imkon yaratadi. Bu bolalar nutqining tez rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumki, syujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarning o'z qonun - qoidalari mavjud. Bu qonun - qoidalarga rioya qilishda bolalar o'z iroda kuchlarini ishga soladilar. Binobarin, o'yin faoliyati davomida bolalarning irodaviy sifatleri ham rivojlanadi. Turli yoshdagi bolalarining o'yin faoliyatlari ularning barcha aks ettirish, ya'ni psixik jarayonlarini, aqliy imkoniyatlarini, shaxsiy psixologik sifatlarini, harakter hislatlarini tarkib toptirib, rivojlantiradi. SHu narsa harakterliki, maktabgacha yoshidagi bolalarning turli - tuman o'yin faoliyatlari sekin - astalik bilan ularni o'qish faoliyatiga tayyorlaydi.

I bob yuzasidan xulosalar:

Bitiruv malakaviy ishimizning I bobi **“3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlar va ularning ahamiyati”** deb nomlanib, unda 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarning bola hayotidagi ahamiyati, o'yinning asosiy maqsad va vazifalarini o'rganildi, shuningdek kichik maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlari mazmuni va bolalarda syujetli-rolli o'yinlarning ahamiyatlari nazariy jihatlariga atroflicha to'xtalib o'tildi va ilmiy, o'quv va uslubiy qo'llanmalardan foydalangan holda yoritildi.

2-bob. 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirish.

2.1. 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirish vositalari

Syujetli-rolli o'yin – maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyatidir. Rolli o'yin mazkur yosh davridagi bolalarning yeng muhim faoliyati bo'lib, ular bunday o'yinda guyo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifalari va ishlarini amalda bevosita bajaradilar. SHu boisdan o'yin faoliyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhit voealari, oilaviy turmush xodisalari, shaxslar aro munosabatlarini umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar.

Bolalar kattalarning turmush tarzi, xis-tuyg'usi, o'zaro muomala va muloqatlarining xususiyatlarini, o'ziga va o'zgalarga, atrof-muxitga munosabatlarini yaqqol voelik tarzida ijro etish uchun turli o'yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini o'tovchi narsalardan ham foydalanadilar. Ammo shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy va maishiy voqelikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rolli o'yin ularda birdaniga emas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi, moxiyati va mazmuni jihatidan oddiydan murakkabga qarab takomillashib boradi.

Rolli o'yin faoliyatini vujudga keltiruvchi yeng zarur omillardan biri - bolada o'z xatti-harakatlarini kattalar xatti-harakati bilan solishtirish, undan nusxa olish, aynan unga o'xshatish tuyg'usining mavjudligidir. Xuddi shu sababli kattalar

va ularning hatti-harakatlari bolaning ham tashqi, ham ichki ibrat namunasi bo'ladi va kattalarning hulq-atvori, yurish-turishining ham ob'ekti, ham sub'ekti hisoblanadi. Syujetli, rolli o'yinlarda bolalar asosan o'zlari har kuni ko'rayotgan va ko'zatayotgan kattalarning hatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o'yini asta-sekinlik bilan jamoaviy harakterni ola boshlaydi.

Bolalarning individual xususiyatlarini, xususan ularning jamoaviy o'yinlari orqali ko'zatish qulaydir. Bu o'yinlarda bolalar kattalarning faqat predmetlarga munosabatini emas, balki ko'proq o'zaro munosabatlarini aks ettiradilar. SHuningdek, jamoaviy o'yinda bolalar bir gurux odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar.

Bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to'grisidaggi xilma-xil o'yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M.Aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit bo'lishi lozim:

- a) taassurotlar tarkib topishi;
- b) har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muhayyoligi;
- v) bolalarning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish uslubi hal kiluvchi rol o'ynaydi.

D.B.Elkonin o'z tadqiqotida rolli o'yinning syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjud ekanini yozadi, Uning fikricha, o'yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatani aniqroq aks ettirishi o'yinning mazmunini tashkil qiladi.

Eng sodda psixik jarayondan yeng murakkab psixik jarayongacha hammasining yeng muhim jihatlarini shakllantirishda o'yinlar katga rol o'ynaydi. Maktabgacha yosh davrida harakatning o'sishida o'yinning ta'siri haqida gap borganda avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'zidayoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o'stirish va takomillashtirish uchun yeng qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishini sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko'nikmalarini

sub'ekt aynan o'yin paytida emas, balki bevosita mashg'ulot orqali o'zlashtiradi. Uchinchidan, o'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun yeng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. SHu boisdan o'yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligani ta'minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi.

Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlarni yeslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq, ochishga yordam beradi, Tajribada yig'ilgan ma'lumotlarni taxlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi

a) o'yinda bola tomonidan ma'lum rol' tanlash va uni ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni yeslab qolishni talab qiladi;

b)shu boisdan personajning nutq boyligini egallash, xatti-harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada oldinroq paydo bo'ladi va oson amalga oshadi.

O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir qo'rsatadi. Bogcha yoshidagi bolalarda o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan Z.V.Manuylekoning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin, Ayniqsa, bu omil maktabgacha yosh davrining xususiyati sifatida o'zining yorqin ifodasini topadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xo'lqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ba'zida ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o'yindagiga qaraganda yuqoriroq ko'rsatkichga ham yerishishlari mumkin. YUqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb yetadi.

Rolli o'yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, bolada shaxsiy xususiyat va fazilatlarni shakllantirishda ham zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning his-tuyg'usini

qo'zg'atuvchilar bilan o'zviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Chunki o'yin davomida bolada har xil xohish va istaklar tug'ila boradi, bular boshqa narsalarning tashqi alomatlari, o'ziga qarama qarshi etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta'siri ostida tug'iladi.

Ma'lumki bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari uning atrofdagi narsa va hodisalar dunyosi ham kengayib boradi. Bolaning maktabgacha yoshdagi davrida, uning faoliyat doirasiga atrofdagi kuchi yetadigan, qo'lidan keladigan narsalardan tashqari, kattalarning faoliyatlariga doir, yani ularning hali mutlaqo aqllari yetmaydigan, jismoniy jihatdan kuchlari yetmaydigan narsalar ham kiradi. Chunki ular turmush tajribalarining ozligi va binobarin, haddan tashqari qiziquvchanliklari tufayli atrofdagi hamma narsa va hodisalarni bilishga intilaveradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mavxum nazariy faoliyatning, ya'ni nazariy yo'l bilan bilish faoliyatining bo'linishi mumkin emas. Bu yoshdagi bolalarning atrofdagi narsalarni bilish faoliyatlari faqat bevosita harakat shaklida bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning haddan tashqari faol (betinim, harakatchan) ekanliklarining sababi ham shundadir.

O'yinning bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab yetadi. Shuning uchun ham o'yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan.

O'yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg'ulotlardan so'ng, sayrlardan so'ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. ertalab o'ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o'yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko'proq didaktik o'yinchoqlar, stol ustida o'ynaladigan stol-bosma o'yinlari, syujetli-rolli o'yinlarni o'ynagan ma'qul.

Syujetli-rolli o'yin o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuniga manba bo'lib xizmat qiladi.

Bolalarning tevarak-atrofdagi hayotdan, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o'yinda qayta ishlanadi, to'ldiriladi, sifat jihatidan

o'zgartiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir.

Bolalar o'yinining o'ziga xos tomoni unda tasvirlovchi vaziyatlarning mavjudligidir. Tasvirlovchi vaziyat bolalarga o'yin jarayonida yuklangan rol va o'yin syujetidan tashkil topadi va har xil buyumlardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi.

O'yinning syujeti— o'z harakati, munosabatlari bilan bog'langan voqea, hodisalar va ularning qatnashuvchilaridir. Rol syujetli-rolli o'yinning asosiy negizi hisoblanadi.

Rol tanlash, o'yinchoqlar bilan o'ynashda o'zaro bog'langan bir necha harakatlarni (ovqat tayyorlash, stolni bezatish, ovqatlantirish) bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish. Ikkita shaxs (haydovchi va yo'lovchi, ona va qizi, shifokor va bemor) ishtirok etadigan voqeaband epizodlarda o'zaro kelishgan holda harakatlanishga, o'yinchoq-o'rinbosarlar bilan o'ynaladigan yakka o'yinlarda o'ziga va o'yinchoqqa tegishli rolni o'ynashga o'rgatish.

Rolli o'yinlarning mazmuni va mavzusi o'zgarishi bilan bir qatorda uning to'zilishi va o'yin shakllari o'zgaradi, bolalarning mustaqilligi va tashabbuskorligi ham o'sib boradi. Avvaliga bolalar o'z-o'zicha alohida-alohida o'ynaydilar. Sekin-asta rolli o'yinlarning paydo bo'lishi, o'yinda kishilar o'rtasidagi munosabatni aks ettirish birgalikda bajariladigan o'yinni keltirib chiqaradi.

O'yinda har xil rollar orqali o'zaro munosabatda bo'lish bolalarda o'rtoqlik munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi.

O'rtoqlik munosabatining dastlabki xususiyati bolalarda maslahatlashib, kelishib olishda namoyon bo'ladi. Kelishib olish avvalo o'yin mavzusini belgilab olishdan boshlanadi. Keyin rollarni taqsimlashda o'yinchoqlar tayyorlashda va boshqa sohalarda kelishib olinadi.

O'yinning to'zilishi va mazmuni o'zgarishi bilan o'yinchoqning roli va bolalarniig unga nisbatan talabi ham o'zgarib boradi va h. k.

Tarbiyachi ilk yoshli bolalarda ularning narsalar bilan o'ynay olishi, diqqatini shunga to'play olish qobiliyatini tarkib toptiradi. Bu boshqa bolalar

bilan yonma-yon tinch o'ynay olish malakasini shakllanishiga yordam beradi. Bolalar birgalikda o'ynashga o'tganlarida bir-birlari bilan ma'lum munosabat o'rnatishlari lozim bo'ladi. Xuddi mana shu munosabat jamoatchilikni shakllantiradi. Bunga tarbiyachi bolalarni kelishib o'ynashga o'rgatish orqali yerishadi.

3 yoshga qadam qo'ygan bolalar bilan suhbatlar, ko'zatishlar o'tkazish, hikoya va ertaklar o'qib berish, maslahat berish va o'yinlarga qiziqtirish kerak. O'yinda bolalarni katta ish-harakatining faqat tashqi tomonigagina taqlid qildirmay, balki ularni odamlarga, mehnatga bo'lgan munosabatlariga ham taqlid qildirish, bolalarda ahillik bilan uynay olish, rollarni taqsimlay bilish, ko'zlangan maksadga erisha olish, tortinchoq va uyatchan bolalarga loyiq rollarni taklif qilib, ularning o'yinga qo'shilishiga yordam berish kerak. Bolalarda hayol tasavvurlarini o'stirish ularni mustaqil biron yangi o'yinni ijod etish, bu o'yinga kerakli narsalarni tanlash, binolar qurish, ba'zi o'yinchoqlarni o'z qo'li bilan yasash, badiiy mashg'ulotlarda orttirgan malakalarini o'yinda qo'llash, qo'shiqlar aytish, she'r o'qish, chizgan rasmlardan va yasagan narsalardan foydalanish istagini o'yg'otadi.

Jamoa o'yinining paydo bo'lishi uning mavzui va mazmunini ham, to'zilishini ham tez rivojlantirish va o'zlashtirish imkonini yaratadi. Bolalar o'yinlari mavzuining o'zgarishida maishiy o'yinlardan mehnat, ishlab chiqarish ijodiyiga ega bo'lgan o'yinlarga, so'ng turli ijtimoiy hayot voqea va hodisalari aks ettiriladigan o'yinlarga o'tiladi. O'yinning mazmuni ham rivojlanadi.

3 yoshning oxiriga kelib bola rol tanlay boshlaydi. "Men oyisiman", "Men - shifokorman" lekin bolalar birdaniga enaga, tarbiyachi, shifokor bo'lib qolishi mumkin.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda ijodiy o'yinning rivojlanib borishi 3-yoshdagi bolalarning o'yinlari yangi tus oladi: bola qo'g'irchoqni va o'zini kishilarning nomi bilan atay boshlaydi:

Masalan, bola mashina yasab uni boshqara boshlaydi. Kattalar undan: sen kimsan?—deb so'rsa, «SHoferman» deb javob beradi. YOKi qizcha

qo'g'irchog'iga ovqat pishiryapti. «Sen kimsan?»—degan savolga, «Men oshpazman», deb javob beradi. Bolalar o'z o'yinlarida sekin-asta murakkab bo'lmagan syujetli o'yinlarni o'ynay boshlaydilar. Bunda asosan kundalik turmushda takrorlanib turadigan voqealar aks etadi. Bolaga ovqat berishadi, uxlashga yotqizishadi, mashinada tortishadi. YAna ovqat berishadi va uxlatishadi. YOki qo'g'irchoq kasal bo'lib qolsa, darrov uning qo'li, oyog'i bog'lanadi, yolg'on-dakam dori beriladi. O'zoq davom etadigan o'yinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'yinlarining yuqori bosqichi

o'yinda har xii rollar orqali o'zaro munosabatda bo'lish bolalarda o'rtoqlik munosabatlari ni shakllantirishga yordam beradi. O'yinning to'zilishi va mazmuni o'zgarishi bilan o'yinchog'ning roli va bolalarning unga nisbatan talabi ham o'zgarib boradi va x.k.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda ijodiy o'yinning rivojlanib borishi.

3 yoshdagi bolalarning o'yinlari yangi tus oladi: bola qo'g'irchog'ni va o'zini kishilarning nomi bilan atay boshlaydi: masalan, bola mashina yasab uni boshqara boshlaydi. Kattalar undan sen kimsan?- deb so'rasa, "Haydovchiman" deb javob beradi, yoki qizcha qo'g'irchog'iga ovqat pishirayapti. "Sen kimsan?"- degan savolga "Men oshpazman" deb javob beradi.

Bolalar o'z o'yinlarida sekin-asta murakkab bo'lmagan syujetli o'yinlarni o'ynay boshlaydilar. Bunda asosan kundalik turmushda takrorlanib turadigan voqealar aks yetadi. Bolaga ovqat berishadi, uxlashga yotg'izishadi, mashinada tortishadi. YAna ovqat berishadi va uxlatishadi, yoki qo'g'irchoq kasal bo'lib qolsa, darrov uning qo'li, oyog'i bog'lanadi, yolg'ondakam dori beriladi.

O'yining qiziqarli bo'lishi va unda bolalarning qanday ishtirok etishlari o'yinning mazmuniga bog'liq. O'yinda bola ij'ro yetadigan rol o'yining asosiy o'zagi va tarkibiy qismidir. SHuning uchun ham bu o'yinlar rolli yoki syujetli-rolli o'yinlar nomini olgan hisoblanadi.

Bola 4 yoshga o'tganda syujetli-rolli o'yinlar ancha rivojlana boshlaydi. O'yinlar mavzui har xil bo'lib, boyib boradi. Bu yoshdagi bolalar o'z o'yinlarida

oila, maktabgacha ta'lim muassasasida, avtobusda, tramvayda kelayotgan kishini aks ettiradilar.

Bolalar o'yiniga tarbiyachining rahbarlik qilishi. O'yin bolalarning qiziqarli yermagigina bo'lib qolmay, shu bilan bir qatorda u bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning muhim vositasi hamdir. Ammo o'yin kattalar tomonidan tashkil yetilib, unga rahbarlik qilingandagina ijobiy natija beradi.

Har bir bolaning yaxshi ko'rgan o'yini va yaxshi ko'rgan roli bo'ladi. Masalan, shifokor bo'lishni xohlagan qiz mana shu rolni har xil o'yinda: maktabgacha ta'lim muassasasi, kasalxona, paroxod va shu kabi o'yinlarda o'ynashga intiladi. Maktabgacha yoshining oxirida so'z yangi ahamiyat kasb etadi: bolalar so'z orqali butun bir o'yin epizodlarini yarata boshlaydilar. Bolalardagi bu xususiyat ularning taffakkur va hayollari rivojlanganligidan darak beradi.

Bolalarning o'ynashlari uchun ma'lum vositalar kerak.

Rolli o'yinlarda bolalar har xil vositalardan foydalanadilar ulardan asosiylari quyidagilar:

- **bolalarning o'z harakatlari;**
- **o'yinchoq va boshqa materiallar;**
- **so'z-bolalarning asosiy tasvirlovchi vositalari o'zlarining harakatidir.**

Masalan, bola ikki oyog'ida sakrab quyonchaga taqlid qiladi. Ikki qo'lini qimirlatib, pishillab parovoz bo'ladi va hokazo. **Bolalariing ko'p harakatlari** qurish, yasash bilan bog'liq bo'ladi. Ular soatlab parovoz, paroxod, elektrovoz quradilar, ularni o'ziga o'xshatishga urinadilar. Ko'pincha qurish o'yinning boshlanishi bo'lib xizmat qiladi.

Taqlid vositasiga o'yinchoq ham kiradi. **O'yinchoq bola harakatini** to'ldiradi, o'ylagan obrazi va fikrini amalga oshirishga yordam beradi. Masalan, qo'lga qo'g'irchoqni ko'tarib olgan qizaloq o'zini haqiqiy onadek sezadi va haqiqiy onalar bajaradigan ishni bajaradi: qizni ovqatlantiradi, kiyintiradi, uxlashga yotqizadi va h. k.

Syujetli-obrazli o'yyinchoqlar syujetli-rolli o'yin uchun foydalaniladi. U bolalarda ijobiy karakter kirralarini, muloyimlik, g'amxo'rlik, yordam

berishga yehtiyoj, shuningdek kattalar mehnatiga hurmat va tengdoshlari bilan o'ynay olish malakalarini tarbiyalaydi.

Ko'pchilik bolalar o'yinlari xilma-xil o'yinchoqlardan foydalanish bilan bog'liq. O'yinchoq bola hayotining yo'ldoshi, uning quvonch manbaidir. U nafaqat o'yin quroli, balki bolalar o'yinida sherik, o'rtoq, kattalar qo'lida esa tarbiyaning muhim qurollaridan biridir. O'yinchoq o'yin yaratishda ishtirok yetadi, bolaning o'ziga xos sherigi sifatida namoyon bo'ladi, uning shaxsiga katta ta'sir o'tkazadi. U bolaga shunchalik yaqinki, bola o'z o'yinchoqlarini sevadi, ularga bog'lanib qoladi, shu tufayli u o'zini atrofdagi hayotning to'laqonli a'zosi deb hisoblaydi.

To'g'ri tanlangan o'yinchoqlar bolani aqliy rivojlanishiga yordam beradi. Xalq pedagogikasida o'yinchoqlarning butun bir sistemasi ishlab chiqilgan.

Ular bilan amalga oshiriladigan o'yinlar bolaning sensor qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

"YOshlarning ma'naviy olamini bolalikdan boshlab yezgu g'oyalar asosida shakllantirish va kamol toptirish haqida gap borganda, muhim bir masala haqida to'xtalib o'tish o'rinli deb o'ylayman. U ham bo'lsa dunyoga hayrat ko'zi bilan boqib, undan o'zgacha ma'no topishga intilayotgan murg'ak farzandlarimizning qiziqishi va hissiyotlariga mos qo'g'irchoq va o'yinchoqlarni ishlab chiqarish masalasidir.

Bir qaraganda bu muammo arzimas narsa bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin, har qaysi go'dak ilk bor olamni o'z atrofidagi o'yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo'lsak, ularning inson tarbiyasidagi o'rni beqiyos ekanligi ayon bo'ladi.

Farzandlarimiz milliy xunarmandchiligimiz asosida yaratilgan o'yinchoqlarni o'ynashsa, ularning tarbiyasiga ijobiy ta'sir yetgan bo'lar yedik"³ deb ta'kidlagan edi birinchi prezidentimiz I.A Karimov.

³ И.А Каримов "Юксак маънавият-енги лмас куч" асарида таъ кидлайди.(156 бет)

Darhaqiqat go'dakning ulg'ayib kelajakda qanday yo'ldan borishi o'zining haet tarzini qanday axloqiy ma'naviy asoslarga qurishi ham uning bolalikda qanday o'yinchoqlar o'ynagani bilan belgilanadi. Har bir halqning o'yinchog'i o'zining pedagogik badiiy va amaliy an'anasiga egadir o'yinchoq hamma millat halqlariga hurmat hissini tarbiyalashi lozim.

O'yinchoqqa quyidagi talablar qo'yiladi:

Pedagogik talab . O'yinchoq obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofiqligi, jamiyatimiz g'oyasi nuqtai nazariga mos kelishi, g'oyaviy jihatdan qimmatli bo'lishi pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi. O'yinchoq bolada olijanob tuyg'ularni o'yg'otishi, boshqa millat bolalari bilan do'stona munosabatlarni tarbiyalash, voqelikka nisbatan olijanob tuyg'ular uyg'otishi, ijobiy ahloqiy tajriba to'plashga yordam berishi lozim. Bolaning faollikka bo'lgan intilishini qoniqtirishi va uni uyg'otishi kerak. Obrazli o'yinchoq real haqiqatni ifoda yetadi, buyum, uning xususiyatlari va hayotdagi ahamiyatini aks ettiradi.

Gigienik talablar. O'yinchoq qanday materialdan va rangdan tayyorlanganligi, bolaning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalanishi mumkinligi asosiy talablardan hisoblanadi.

Badiiy talablar. SHakl, buyoq va bezaklarning har tomonlama uyg'unlashuvi, bir-birini rang va shakl jihatdan to'ldirib, ta'kidlab, o'yinchoqning badiiy ifodaliligini oshiradi. O'yinchoqlarning to'zilishi va bezalishi bolalarning turli yosh bosqichlarida idrok etish xususiyatlariga to'la mos kelmog'i lozim.

To'g'ri tanlangan o'yinchoq - bolaning jismoniy, ahloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolani aqliy jihatdan tarbiyalashda didaktik o'yinchoqlarning butun bir tizimi katta ahamiyat kasb yetib, sensor va nutq rivojiga ta'sir yetadi, fikrlash jarayonlari va diqqatini tarbiyalaydi, buyum va uning xususiyatlariga, qurilishiga bo'lgan qiziqish shakllanadi, bilimi, tushunchalari boyib boradi.

O'yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o'ynash tuyg'usini uyg'otadi va ijobiy his-tuyg'ularni tarkib toptiradi. Axloqiy his-tuyg'ularni shakllantirishda qo'g'irchoq muhim ahamiyatga ega. Milliy ko'g'irchoq bolalarni boshqa millatga mansub bo'lgan tengdoshlariga bo'lgan ijobiy munosabatini tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. San'atni biri nchi yorqin obrazli va yeng tushunarli buyumi bo'lgan o'yinchoq estetik hislar va kechinmalarni uyg'otadi, yestetik tarbiyani to'plashga yordam beradi va badiiy didni shakllantiradi. SHu o'rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo'lgan xalq o'yinchoqlarining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

O'yinchoq bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo'lgan yehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiklashtirishini rivojlantiradi.

Ilk yoshdagi bolalarga mo'ljallangan ko'p o'yinchoqlar (shaqldoqlar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshq.) bolada ko'rish va yeshitish diqqatini rivojlantiradi, ushlar harakatlari va buyumli harakatlarni o'stirishga yordam beradi.

Texnika o'yinchoqlari bolalarda texnikaga va texnika asboblariga bo'lgan qiziqishni uyg'otib, ularni o'z o'yinlarida qo'llay olish imkonini yaratadi. Bolalarga texnikaga bevosita aloqasi bor buyumning (mashinalar. mexanizmlar, transport turlari, aloqa vositalari) tashqi ko'rinishi, obrazini va unga xos harakatlarini tanishtiruvchi texnik o'yinchoqlar yaqin turadi.

Qurish-yasash o'yinchoqlari bolalardagi qurish-yasash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda ijodkorlikka intilish uyg'otadi. Bu o'yinchoqlarni o'ynash buyumning asosiy vazifalariga taqlid qilish imkonini yaratishi lozim. (avtomobilda g'ildiraklar harakatlanishi, yeshik ochilishi). Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinchoqlarning asosiy 2 turi mavjud:

a) kublar, prizmalar, konuslar, piramida, tsilindrlar, plastinkalar. geometrik shakllar to'plami.

b) turli blok - devor, kolonka, tomarqa va boshqa arxitektura va qurilish

materiallari. Mayda (stol o'yinlari uchun) va yirik (polda va maydonchada) o'ynashga mo'ljallangan bu qurilish materiallarining rangi har xil bo'lishi mumkin.

Didaktik o'yinchoqlarning asosini halq o'yinchoqlari tashkil qiladi. Ular o'ynashda bola o'z-o'zini nazorat qiladi. Xilma-xil mozaykalar sensor qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ulardagi o'yin vazifasi naqshlar, rasmlarni tanlash va joylashtirishdan iborat.

Harakatli o'yinlarga mo'ljallangan o'yinchoqlar: suv, qum bilan o'ynaladigan o'yinchoqlar, koptoklar, arg'amchilar, chamberaklar va boshqalar. Ularning asosiy vazifasi bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashdir.

Musiqali va teatrlashtirilgan o'yinchoqlar bolalarning musiqaviy ohang va ritmni eshita olish qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Katta yoshdagi bolalar ertaklarni sahnalashtiradilar.

Kiyimlar va ularning qismlari ham bolaning olgan rolini yaxshiroq bajarishga va uni yanada aniqroq ijro etishga imkon tug'diradi. Ba'zan arzimagan detal ham o'yinga qiziqish uyg'otadi. Masalan, petrushka o'tdan qalpoq qilib, qizil SHapkachaga shlyapa, biron hayvonga dumcha yasab bolalar o'z taassurotlarini to'laroq ifodalaydilar.

Bolalar o'yin jarayonida ba'zi bir narsalarni xohlagan narsalari nomi bilan atab ham xuddi o'sha xohlagan narsalarini faraz qilib juda yaxshi o'ynaydilar, masalan, taomni «kokfet», qumni «shakar», stulni «mashina» deb atashlari mumkin.

O'yinchoq-ovutmachoklar harakatchan, ko'pincha ovoz chiqaradigan bo'ladi. Ular bolalarni o'zlarining ajoyib xatti-harakatlari bilan quvontiradilar, ijodiylari esa vaqtichog'lik bag'ishlaydi.

Qulbola o'yinchoqlarni kattalar bolalar bilan birgalikda tayyorlaydilar va turli ertak, hikoyalarni sahnalashtiradilar.

O'yinchoqlarni materialiga ko'ra: hunarmandchilik, qo'lbola usulida, fabrikada tayyorlanadi.

Taniqli pedagog A.S.Makarenko o'yinchoqlarning 3 turini ajratib ko'rsatgan edi: tayyor o'yinchoqlar, yarim tayyor o'yinchoqlar va o'yin materiallari. Birinchi turi bolalarni buyumlar va narsalarning rang-barangligi bilan tanishtiradi, tasavvurini o'stiradi. Ikkinchi turi boladan faol faoliyatni talab qiladi, mantiqan va aqlan o'sishga yordam beradi. Uchinchi turi bevosita bolaning ijodiy faoliyatini ta'minlaydi.

So'z yordamida bolalar qanday o'yin o'ynashlarini va boshqalarni kelishib oladilar. So'z yordamida bir-biri bilan muomalada bo'lib, o'z fikrlarini izhor etishadi. So'z har xil taassurotlarni ifodalash imkonini beradi. Bolalar bu hamma vositalardan ko'pincha bir vaqtda foydalanadilar.

Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qaxramon bilan muloqot o'rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning o'rniga o'zi gapiraveradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi.

Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechinmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi.

Aks ettiruvchi vosita qanchalik ko'p bo'lsa, o'yin mazmuni shunchalik boyroq bo'ladi, hamda tevarak atrofdagi voqiyalardan olingan taassurot shunchalik to'laroq aks ettiriladi.

O'yin mazmunining rivojlanib borishi bilan murakkab jarayon bo'lgan bolalar jamoasi ham shakllana boshlaydi. O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lgani uchun uning syujetini bolalar o'zlari o'ylab topishadi va o'zlari tashkil etishadi. O'yinda bolalar o'zlarining kichkina jamiyatning a'zosi deb hisoblashadi. O'zaro kelishib harakat qilishga o'rganishadi.

Ijtimoiy tarbiya olayotgan sharoitda har bir bola o'ynayotgan bolalar jamoasiga kira olishi, u yerda o'z o'rnini topa olishi va shu jamoada o'rnashib olishi lozim.

2.2. 3-4 yoshli bolalarga ta'lim – tarbiya berishda syujetli-rolli o'yinlarni amalga oshirish va unga rahbarlik

O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» ham deb atash qabul qilingan. U maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi, u mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ko'pchilik jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi; o'yin jarayonida bolani xayoloti, xotirasi faol ishlaydi, ta'sirchanlik va iroda sifatlari namoyon bo'ladi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'yinning jamiyat hayotida turgan o'rni tufayli kattalarning o'yinga, mehnatga, bolalar ta'limiga bo'lgan munosabati ham turlicha. Bolalar ta'limi va mehnat jamiyat uchun hayotiy zarur narsa, chunki ular bevosita yosh avlodning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishlariga yo'naltirilgandir (ishlab chiqarish, ilmiy va hokazo). SHuning uchun ta'lim va mehnat mazmuni, uni tashkil etish usullari, natijalari kattalar tomonidan har tomonlama belgilanib va nazorat qilib tu-riladi.

SHu bois o'yin qat'iy qoidaga amal qilmaydi — u bolalarning mustaqil faoliyatidir, biroq, uning bolaga ko'rsatadigan ulkan ta'sirini hisobga olgan holda kattalar bolalar o'yin-lariga rahbarlik qiladilar, o'yinlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga sharoit yaratadilar.

Tayyorgarlik davri, o'yinga kirishish, o'yindagi harakatlarni muhokama qilish, asosiylarini belgilab olish jarayonlariga bo'linadi. Bu jarayonlar o'yin mazmunini to'laroq ifoda eta olishga, o'zaro iliq munosabatlarini o'rnatishda kelishib olishga yordam beradi. O'yinni rivojlantirish uchun o'yinga qo'yiladigan talablar mazmunini o'zgartirish kerak. O'yin vaziyatini tanlash o'yinga rahbarlik kilayotgan pedagogning mahoratiga, qiziqishiga bog'liq.

O'ynash uchun ma'lum joy ajratish ham o'yinning shart-sharoitiga kiradi. Guruh xonasida o'yinchoqlar uchun maxsus shkaflar, javon-tokcha bo'lishi kerak.

O'ynayotgan bolalar bir-birlariga xalaqit bermasliklari uchun xonadagi narsalar iloji boricha xonaning har xil joyiga tartib bilan joylashtirilishi kerak. Bolalar o'yiniga o'yinchoq va boshqa materiallarni to'g'ri tanlay bilish ham katta ahamiyatga ega. Bolalarga beriladigan o'yinchoqlar va materiallar dasturda ko'rsatilgan. O'yinchoqlar sotib olingan va maktabgacha ta'lim muassasasida yasalgan bo'ladi. O'yinchoqlardan bolalar har doim foydalanishlari lozim. Bolalar o'yinchoqlardan bimalol foydalanganlaridagina o'yinchoq ularga quvonch bog'ishlaydi. Ko'pincha tarbiyachilar o'yinchoqning kir bo'lishi, sinishidan qo'rqib bolaga berishmaydi. Uyinchoqni bola atayin sindirmaydi, balki uning ichida nima borligini bilgisi kelganidan sindiradi. Tarbiyachi bolalarda o'yinchoqqa nisbatan ehtiyotkorlik hissini, uni nima uchun asrab, sindirmay o'ynash kerakligini tushuntirib borishi kerak.

Bolalarning o'zlari o'yinchoqlar yasashlari uchun ularga kichkina yog'och bo'laklari, mix, loy, qog'oz, karton, bo'yoq va kerakli asboblari: bolg'acha, qo'l arra, qaychi, pichoq kabilarni berish kerak. Ammo o'yinchoqlar yasash ustida ishlash faqat tarbiyachining rahbarligi ostida bajarilishi lozim. Bundan tashqari, bolalarga mebel bilan ham o'ynashga ruxsat berish kerak, tarbiyachi bolalarga uni ehtiyotlab, asrab o'ynash kerakligini tushuntirishi zarur. Tarbiyachi bolalarning tasavvur va tushunchalarini boyitib borishi va o'yinchoqlar bilan qanday o'ynash kerakligini bolalarga o'rgatishi lozim.

O'yin mavzusini tanlashga yordam berish bolalarni o'ynashga o'rgatish usullaridan biridir. Kichkina bolalar o'yin mavzusini tanlashadi.

3 yoshli bolalar o'yin syujetini emas, balki o'yindagi rolni tanlaydilar. «Men oyisi bo'laman», «Men Gulmira xola» bo'laman va hokazo. Qichik yoshli bolalar, hatto katta yoshdagi bolalar ham (ular o'yiniga to'g'ri rahbarlik qilinmasligi orqasida) ko'pincha bir xil mazmundagi o'yinni o'ynaydilar, chunki bunday bolalarda tashabbuskorlik, hayol, tajriba yetarli rivojlanmagan bo'ladi. SHu bilan bir qatorda kichkina bolalar yaratgan obrazlar beqaror bo'ladi. Bola bir narsadan ikkinchi narsaga tez o'tadi.

Masalan, tarbiyachi rolini o'ynayotgan bola tezda do'xtir bo'lishi, birdan esa ona rolini o'ynagisi kelib qoladi.

Tarbiyachining bolalar o'yiniga rahbarlik roli shundan iboratki, u bolalar o'ynayotgan yaxshi o'yinlarni qo'llab-quvvatlaydi, kattalar mehnatini, tabiatni kuzatadi, kitoblar o'qib berish, hikoyalar so'zlab berish or-qali o'yinning yangi mavzulariga qiziqish uyg'otadi. Katta guruh bolalari bilan qanday o'yin o'ynashlari mumkinligi to'g'risida tarbiyachi suhbatlashib olishi mumkin, bunda bolalar bilan kuzatgan, eshitgan narsalarini birgalikda eslashadi. SHu yo'sinda tarbiyachi har xil usullardan foydalanib, bolalarning rolli o'yinlari mavzusini kengaytirishga yordam beradi.

Ijodiy o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.E.Samorukova va boshqalarning fikricha, ijodiy–rolli o'yinlar kattalarning ijtimoiy hayotidagi rang-barang xatti-harakatlari, ko'rinishlari – bolalar o'yinlarining asosiy mazmuni bo'lib xizmat qilib, kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir.

Syujetli-rolli o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.E.Samorukova va boshqalarning fikricha, ijodiy–rolli o'yinlar kattalarning ijtimoiy hayotidagi rang-barang hatti-harakatlari, ko'rinishlari – bolalar o'yinlarining asosiy mazmuni bo'lib xizmat qilib, kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir.

Bola 3 yoshga qadam qo'yganda jismoniy o'sishi bir qadar sekinlashadi. Bu davrda uning og'irligi 14-15 kg, bo'yi 90-95 sm ga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. 3 yoshli bolalar qisqa muddat davomida o'z hatti-harakatlarini idora qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Ulardagi mustaqillik ortib boradi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo'lib o'ynash ko'nikmalari shakllanadi. O'yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati

kengayadi. Tasviriyl faoliyat hamda qurish-yasash faoliyatining dastlabki ko'rinishlari namoyon bo'ladi.

3 yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o'yin faoliyati yetakchi rol o'ynaydi.

Ijodiy o'yin faoliyatida asosiy komponent bo'lib, u personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini o'z ichiga oladi. **Syujetli-rolli o'yinlar** o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra jamoa o'yini bo'lib hisoblansada, yakka holda o'ynalmaydi, degan fikrni keltirib chikarmasligi kerak. **Syujetli-rolli o'yinlar** bolaning aqliy, ahloqiy, jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi.

3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarga rahbarlik qilish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

1 - bosqich. Bolalarning kizikishlarini, ulardagi ijodiy o'yinlar rivojlanishi darajasini urganishning asosiy vositasi quyidagilar:

- bolalar o'yinlarini ko'zatish,
- o'yin rivojining asosiy yo'nalishlari, o'yin mavzusi, o'yin mazmuni, bola o'yin faoliyatining rivoji, o'yinda o'zaro munosabatlarning rivojlanishi bo'yicha tavsifnoma to'zish;

- o'yinga rahbarlik maqsadini aniqlash.

2 – bosqich. Kattalarning o'yin mavzui va mazmuniga ta'sir etishi:

- o'yin mavzui bo'yicha sayohat va maqsadli sayrlar;
- suhbatlar;
- badiiy asarlar va hikoyalar o'qib berish;
- illyustrativ rasmlar ko'rsatish;
- mavzu bo'yicha turli mashg'ulotlar;
- tasviriyl faoliyat mashg'ulotlari.

3 – bosqich. O'yinga tayyorgarlik (o'yin o'ynash uchun maxsus joy, o'yinchoqlar va o'yin materiallari):

- tayyor o'yinchoqlarni tanlash;

- qo'lda yasalgan o'yinchoqlar. Bunda bolalarning mustaqil shug'ullanishlari uchun o'yin zonasini tashkil etish.

4 – *bosqich*. Bolalarni uynashga o'rgatish (o'yin jarayoni va boshqa narsalarni o'yinda aks ettirish):

- o'yinchoq va uning o'rnini bosuvchi buyumlar ta'sirini o'rganish;
- o'yinda hayoliy tasavvurlarni aks ettirishga o'rgatish;
- o'yinda so'zlardan foydalanishga o'rgatish;
- o'yinda harakatlarni hisobga olish malakalarini shakllantirish;
- so'z va harakat;
- harakat va o'yin materiali,
- so'z, harakat va o'yin materiali o'yinning tili hisoblanadi.

5 – *bosqich*. O'yinda ahloqiy munosabatlarga ta'sir etish, bolalar jamoasi, xulq-atvor, madaniyat, o'yin faoliyatida o'yin madaniyatini shakllantirish:

- ma'lum o'yin mavzuiga nisbatan bolalarning his-tuyg'ularini o'yg'otish;
- bolalarga o'yinni avvaldan rejalashtirish elementlarini o'rgatish;
- o'yinda rol va o'yinchoqlarni oqilona taksimlashga o'rgatish;
- tengdoshlari bilan ahil uynay olish madaniyatini tarbiyalash;

- ahil jamoani shakllantirish: mustaqil uynash va o'yinni oxiriga yetkazish, o'yin jarayonidagi kelishmovchilik, bahslarni oqilona hal eta olish malakalarini tarbiyalash;

- kattalarning o'yinga ta'sir etishi – maslahat berishi, tushunchalarini to'ldirish, o'yinga to'laqonli yordam berish;

- bolalarning o'yin faoliyatlarini, ahloqiy munosabatlarni baholash.

Bolalar o'yiniga rahbarlik ishi shundan iboratki, bolalar o'ynayotgan yaxshi o'yinlarni qo'llab-quvvatlaydi, kattalar mehnatini, tabiatni ko'zatadi, kitoblar o'qib berish, hikoyalar so'zlab berish orqali o'yinning yangi mavzulariga qiziqish uyg'otadi. Bolalari bilan qanday o'yin o'ynashlari mumkinligi to'g'risida suhbatlashib olishi mumkin, bunda bolalar bilan ko'zatgan, eshitgan narsalarini birgalikda eslashadi. SHu yo'sinda har xil usullardan foydalanib, bolalarning rolli o'yinlari mavzusini kengaytirishga yordam beradi.

O'yinga rahbarlik qilish chog'ida bolalarniig rolli o'yinlari mavzusini boyitibgina qolmay, balki uning syujetini, mazmunini boyitish to'g'risida ham o'ylashi kerak. Masalan, bolalarni «kasalxona», «do'kon», «qurilish» kabi o'yinlarning mazmunini kengaytirib, boyitib o'zgartirib borish kerak, yoki bo'lmasa, bolalar «kosmonavtlar» o'yinini o'ynashyapti, deylik. Hammalari «kosmik» kemaga tushib fazoga uchib chiqishdi-da, keyin nima qilishni bilishmadi, o'yin xuddi shu yerda to'xtab qoldi. SHunda o'yin mazmunini tevarak-atrofga ekskursiya qilish, ko'zatish, yangi narsani tushuntirish, badiiy adabiyotlar o'qib berish orqali boyitib borish mumkin.

Ba'zan bolalar o'z taassurot va bilimlarini o'yinda aks ettira olmaydilar. O'yinlarga rahbarlik qilivchi tarbiyachilar o'ziga rol olib, hara-katlarini ko'rsata boshlaydi va bolalarga yangi rol taklif qiladi. Masalan, «bolalar bog'chasi» o'yinini olaylik. Ota-onalar o'z bolalarini maktabgacha ta'lim muassasasiga olib keladi, tarbiyachi bolalarni ovqatlantirish, uxlatish bilan shug'ullanadi. Ota-onalarga esa qilgani ish yo'q. Bunda tarbiyachi fabrika «direktori» rolini bajarib, hammaning shu fabrikaga ishga kirishini taklif etadi. «Ishchilar» fabrikada qo'g'irchoqlarga ko'ylak, shapka, palto va boshqa kiyimlar tikishadi. SHunda bolalar o'z narsalarini sotadigan do'kon kerakligini o'ylab topadilar. Keyin esa oziq-ovqat do'koni kerakligi to'g'risida fikr tug'iladi, bu esa shu do'kon uchun oziq-ovqat tayyorlaydigan «qandolat fabrikasi» ochish fikrini o'yg'otadi. Bolalar plastilindan yoki loydan konfet, teshik kulcha, pechene va boshqalar tayyorlaydilar. SHunday qilib, o'yinning mazmuni boyib boradi, unda qatnashuvchilarning soni ko'payadi. Ammo tarbiyachi o'yinda har doim ham biron rolni bajarishi shart emas, tarbiyachi rolni bajaruvchilar nima ish bajarishi kerakligini eslatishi ham kifoya qiladi.

O'yinga kerakli o'yinchoqlar va materiallarni tanlash ham katta ahamiyatga ega. Agar o'yinga kerakli o'yinchoq yoki material etishmasa o'yin tezda to'xtab qoladi, shunda tarbiyachi mashg'ulotdan bo'sh vaqtlarida bolalar bilan kerakli o'yinchoqlar yasashi kerak. Tarbiyachi bolalarning o'yinga materialni to'g'ri tanlashi uchun quyidagilarni bilishi kerak:

1. Bolalar o'ynaydigan o'yin mavzusini, bolalarning yaxshi ko'rgan o'yinlarini.
2. Bolalarni qiziqtiradigan narsalarini.
3. O'yinda qatnashadigan bolalar sonini.

Tarbiyachi o'yin mazmunini, syujetini boyitishgagina ta'sir etib qolmay, balki o'yin orqali bolalarda do'stlik, o'rtoqlik munosabatlarini tarbiyalashi va do'stona bolalar jamoasi shakllantirishi lozim.

Tarbiyachi hamma bolalarning o'yinga qatnashishlari ustida g'amxo'rlik qilishi kerak. O'yinda ular ko'pincha rol talashib bir-birlari bilan kelisholmay qoladilar. Bolalarni bunday kelishmovchiliklarni haqqoniy yechishga o'rgatish lozim.

Bolalar o'rtasida o'yin jarayonida hadeb nizo chiqavermasligi uchun tarbiyachi katta guruh bolalariga o'yinning mazmuni va borishi, kimning nima ish bajarishini oldindan kelishib olishni buyuradi. Bundan tashqari, o'yinda bolalar axloq normalarining shakllanishiga e'tibor berib borish kerak. Bolalar o'z o'yinlarida kattalarning bolalarga g'amho'rliqi, narsalarga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lishi, ozodalik, o'ylagan ishni yaxshilab sifatli bajarish kabi sifatlarni aks ettirishlari lozim. Masalan, uy qurayotib, uning mustahkam, chiroyli, kishilarga qulay bo'lishiga e'tibor berish kerak. Tramvay o'yinidagi «konduktor» odamlarga xushmuomala bo'lishi kichkinalar kattalarga joy bo'shatishi kerak va h.

Tarbiyachi bolalardan so'zlarni aniq, balandroq yoki past, sekinroq yoki tez talaffuz etishni talab etadi. Bu mashqlarda matnni eslab qolish uchun o'tkaziladigan har bir mashg'ulotda 5—6 daqiqadan vaqt ajratiladi. Bolalar «SHolg'om», «Bo'g'irsoq», «Tulki, xo'roz va quyon» kabi ertaklarni sahnalashtirishni juda sevadilar.

Ertak va hikoyalarni bolalar ko'pincha o'zlarining ijodiy rolli o'yinlarida sahnalashtiradilar, bu o'yinlarda tulki, quyon, ho'roz, sichqon kabi personajlarni o'yinlarda aks ettiradilar. YOzuvchilarning badiiy asarlarini ham bolalar sevib sahnalashtiradilar. Masalan, S.Marshakning «Teremok» ertagini olaylik. Bu ertakdagi har bir so'z juda chiroyli jaranglaydi va ishonarli, shu bilan birga

bolalar aks ettirishi uchun juda qiziqarli obrazlarga egadir. Teremokda yashashni xohlagan har bir hayvon uning oldiga kelib, o'zini tanishtiradi va yaxshi tomonlarini ko'rsatishga urinadi, o'sha uyda yashash huquqiga ega bo'lish uchun o'zining qanday foyda keltira olishini va mehnatga layoqatli ekanligini aytadi. Asar she'r uslubida yozilgan. Rus xalq ertaklarini sahnalashtirganda bolalar ba'zi bir ertak yoki hikoyadagi so'zlarni o'zgartirib aytishlari mumkin, ammo «Teremok» hikoyasida bunday imkoniyat yo'q, bolalar ma'lum matnni aynan qaytarishlari lozim. Tarbiyachi hikoyani birinchi marta o'qib bergandan keyin bolalarga asarning mazmuni va maqsadini ochuvchi savollar beradi. Masalan, mana bunday savollar beriladi:

Bu ertakda nima to'g'risida gapiriladi? Nima uchun yirtqich hayvonlar teremokda yashovchilarni yenga olmadilar?

Bolalar bilan suhbatlasha turib, tarbiyachi hikoya yoki ertak qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlarni aniqlashga harakat qiladi. Har xil she'r, ertaklardagi qahramonlarning o'ziga xos xususiyatlari mana shunday o'rganiladi. Sahnalash-tirish ishini quyidagi bosqichlar bo'yicha o'tkazish mumkin:

/ *bosqich*. Adabiyotlarni tanlash. Sahnalashtirish uchun adabiyot tanlaganda quyidagi talabga rioya qilishi kerak:

1. Ertak, hikoya yoki she'rda qatnashuvchilar ko'p bo'lishi kerak.
2. Asarda mazmun yaxshi bo'lib qolmasdan, harakatlarning xili ham ko'p bo'lishi kerak. K. CHukovskiyning «Telefon» ertagida harakat ko'p. SHuning uchun uni sahnalashtirish yaxshi va qiziqarli bo'ladi.
3. Asar ifodali o'qishga mos bo'lishi kerak.
4. Mazmuni qiziqarli bo'lishi kerak.
5. Asar bolalarning yoshiga to'g'ri kelishi kerak.

II bosqich. Sahnalashtirish uchun tanlangan hikoya, she'r, ertakning mazmunini o'qib berish yoki qo'g'irchoq, soya teatrda ko'rsatish orqali tanishtiriladi.

/// bosqich. eslab qolish. Asarni bolalar eslab qolishlari uchun uni qayta o'qib berish, postanovka ko'rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

IV bosqich. O'yin qiziqarli o'tishi va uzoq davom etishi uchun o'yinga kerakli materiallar, kiyimlar tayyorlab berish va shu bilan birga to'g'ri rahbarlik qilish kerak. Bu ishni tarbiyachi bajaradi, katta guruhda esa tarbiyachi yordamida u bilan birgalikda bolalar bajarishadi. Tarbiyachi bir qancha ertakka doir rasmlar ko'rsatadi. Masalan, «Teremok» ertagiga kostyum tanlash uchun «Qo'lqopcha» ertagiga tayyorlangan rasmlardan foydalanish mumkin. Bolalar teremok oldidagi archani mustaqil bo'yashlari, kostyumga archaning ninachalarini sanchib qo'yishlari, xo'roz uchun pat qirqishlari mumkin. Maktabgacha yoshidagi bolalar har doim ham o'zlari mustaqil ravishda sahnalashtirilgan o'yinlarni o'ynab keta olmaydilar. Buning uchun bunday o'yinlarni o'ynashga bolalarda qiziqish o'yg'otish kerak.

J; Bunga qanday erishiladi? Buning uchun tarbiyachi har xil yo'llardan foydalanadi. Masalan, tarbiyachi bolalarga ertakni yodlab, uni sahnalashtirish va bu spektaklni ota-onalar majlisida yoki kichkina bolalarga ko'rsatishni taklif etadi. Bunda rollarni bo'lish va uni o'ynash juda katta ahamiyatga ega. Rollarni bo'lishda bolalarning xohishlarinigina emas, balki uni yaxshi bajarishlarini ham e'tiborga olish lozim. Agar bola rolni yaxshi o'ynay olmasa, unday bola bilan alohida shug'ullanish kerak va bu bolaga o'ng'ay rolni ajratish kerak.

Guruhlarda shu yoshdagi bolalarga xos bo'lgan ertaklar, hikoyalar ularga tanish bo'lib qolgandan keyingina sahnalashtirish boshlanadi. «SHolg'om», «Bo'g'irsoq» kabi ertaklar sahnalashtiriladi. Tayyorlov guruhida bu ish davom ettiriladi. Sahnalashtirish uchun ertaklarga olinmasdan, badiiy asarlar, xususan she'rlar ham olinadi. Sahnalashtirish o'yinlariga guruhlariga qarab har xil rahbarlik qilinadi. Masalan, tarbiyachi o'rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlaydi, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg'ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

Tarbiyachi bajarilgan ishning hisobini olib boradi. Bolalarga qaysi asar yoqqanini, ular ko'proq qaysi asarni sahnalashtirishni yoqtirishlarini, qaysi bola topshirilgan rolni yaxshi ijro etolganini, rollarni ijro etishda bolalarda qanday qiyinchiliklar vujudga kelganini yozib boradi. Mana shu asosda bo'lg'usi sahnalashtiriladigan o'yinlar jonlantiriladi.

Kichkina (3-4 yosh)guruhda rolni ko'pincha tarbiyachining o'zi taqsimlaydi, katta guruhda esa kim qanday rolni o'ynashini bolalar o'zlari kelishib oladilar.

Pedagog bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, quyidagi talablarga ye'tibor berishi zarur:

- o'yin mazmunini ta'lim-tarbiya beruvchi ahamiyatga ega bo'lishi, aks yettirilayotgan narsalar haqidagi tasavvurlar to'g'ri va to'la bo'lishi;
- o'yin harakatlariga faol, ma'lum maqsadga qaratilgan, ijodiy xususiyatga ega bo'lishi kerak;
- hamma va ayrim bolalarning qiziqishlarini ye'tiborga olgan holda o'yinga rahbarlik qilish;
- o'yinchoqlarni va boshqa kerakli materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish;
- bolalarning o'yinda xayrixoh va xursand bo'lishlarini ta'minlash lozim.

Pedagog bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining hamma tomonlariga: ongiga, his tuyg'ulariga, irodasiga, hulqiga ta'sir etishi va bundan bolalarni aqliy, axloqiy, yestetik va jismoniy tomondan tarbiyalashda foydalanishi lozim.

O'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O'yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o'zining butun diqqatini o'yinga qaratishi lozim. Bola o'ynayotganda qishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi.

Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga boshqa millat qishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi.

O'yin bolalarda ijtimoiy ahloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos maktabdir. O'yinda bola qishilarning axloq-odob normalarini, mehnatga munosabatlarini bilib oladi.

Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar o'z xoxishlarini jamoa xoxishi bilan kelishib olishga, o'yinda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o'rgandilar.

Ammo o'yinga to'g'ri rahbarlik qilinmasa, u noxush oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Tarbiyachi bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda o'yindan keng foydalaniladi. Juda ko'pchilik o'yinlar bolalardan faol harakat qilishni talab yetadi, bu esa o'z navbatida organizmda modda almashinishini yaxshilaydi, qon aylanishini tezlashtiradi. Bundan tashqari faol harakat qilish bola gavdasini to'g'ri o'sishini, harakatlari chiroyli bo'lishini ham ta'minlaydi.

O'yin orqali tarbiyachi bolalarda quvnoq kayfiyat yaratadi, ijobiy ruhiyat hosil qiladi, bu esa bolaning asab-ruhiy, jismoniy tarbiyasini yaxshilaydi.

Syujetli-rolli o'yinning tarbiyaviy ta'sirining mohiyati unda bolaning ijtimoiy tajribalarini egallash va to'plashidadir. O'yinlar mazmuni bolani ahloqiy munosabatlarning keng doirasiga olib kiradi: g'amxo'rlik, o'zaro yordam mas'uliyati va shu kabilar. Bola o'yinda rol xatti-harakati qoidalarini egallash asnosida rolda mujassamlashtirilgan ahloqiy qoidalarni ham o'zlashtiradi. Bolalar kattalar faoliyati sabablari va maqsadini, ularning o'z mehnatlariga, ijtimoiy hayotning voqea va hodisalariga, odamlarga, narsalarga munosabatini o'zlashtiradilar: o'yinda kishilarning turmushiga, ularning ishlariga, jamiyatdagi xulq-atvor norma va qoidalariga ijobiy munosabat shakllantiriladi. SHu asnoda

syujetli-rolli o'yin muomala madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida ham yuzaga chiqadi.

Birgalikdagi jamoa o'yinlar ko'p darajada jamoalik tuyg'ularini shakllantirishni belgilaydi. O'yin umumiy niyatni qabul qilishni, harakatlarning muvofiqligini talab qiladi, kechinmalarni umumiyashtiradi. Jamoachilik hissiy tarbiyalashda o'yin chog'ida bolalar o'rtasida vujudga keladigan mavjud o'rtoqlik munosabatlari katta ahamiyatga ega bo'ladi: bolalar o'yin haqida kelishib olishadi, maqsadni amalga oshirishda bir-birlariga yordam beradilar, vaziyatni uyushtiradilar, ziddiyatlarni bartaraf etadilar. O'yinda rol va o'rtoqlik munosabatlari qo'shib ketadi: o'yin jamoasi ichidagi mavjud munosabatlar rollarning bajarilishini ta'minlaydi va nazorat qiladi. O'ynovchilarning bolaning butun faoliyatini o'z ichiga olgan mavjud munosabatlar bolalar jamoasini shakllantirishning asosiga aylanadi.

O'yin bolalarga yestetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo'llaniladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, voqealikni obrazlar, rollar orqali ham aks ettiradilar. O'yinda bolalarning avval olgan tassurotlari orqali obraz yaratishlari – hayol juda ham katta ahamiyatga ega. Bolalar juda ko'p o'yinlarda avval o'rgangan ashula, she'r, raqs, topishmoqlardan keng foydalanadilar. Bundan tarbiyachi bolalarda yestetik did, zavqni tarbiyalashda foydalanadi.

O'yin vaqtini tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Nonushta bilan mashg'ulot o'rtasida bolalar o'yiniga 8-10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'pincha avval boshlagan o'yinlarini davom ettiradilar. Sayrda bolalarning o'ynashlari uchun 1 soat – 1 soat 20 minut vaqt ajratiladi. Kundo'zgi uyqu va kechki nonushtadan keyin ham bolalar o'yinga vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'proq syujetli- rol o'yinlarni, qurilish materiallari, qo'g'irchoqlar bilan, stol usti o'yinchoqlari o'ynashlari mumkin. SHu bilan birga ermak o'yinlardan ham foydalaniladi.

Ammo o'yin bilan ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik bola ulg'aygan sari o'zgarib boradi. Kichik guruhda o'yin ta'lim berishning asosiy shakli

hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg'ulotlarda ta'limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o'zlarida maktabdagi o'qishga ishtiyoq uyg'onib qoladi.

Ammo bolalar uchun o'yinning qadri yo'qolmaydi, balki mazmuni o'zgaradi. endi bolalarni ko'proq fikriy faollikni talab yetuvchi o'yinlar, sport tarzidagi o'yinlar qiziqтира boshlaydi.

II bob yuzasidan xulosalar:

Ushbu bobda **3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirish** samaradorligini oshirish alohida ahamiyat kasb etishini, ya'ni 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirish vositalari, bolalarga ta'lim–tarbiya berishda syujetli-rolli o'yinlarni amalga oshirish va unga rahbarlik tashkil etishda tarbiyachi mahorati, muntazam o'qish va o'rganish, tashabbuskorlik , ijodiy izlanuvchanlik, yangiliklar yaratish, malakasini oshirish davr talabi ekanligi nuqtai nazardan yondashib, materiallar to'pladik va ishimizda yoritdik.

3-bob. Tajribani tashkil etish.

3.1. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.

Maktabgacha ta'lim muassasasining 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirish vazifalari borasida olib borilgan tadqiqotimiz davomida turli xil o'yin mashg'ulotlari jarayoni, suhbatlar, videolavhalar, ko'rgazmalardan foydalangan holda o'tkazilgan tajriba-sinovimiz so'ngida 3-4 yoshli bolalarga ta'lim – tarbiya berishda syujetli-rolli o'yinlarning ahamiyati, hamda syujetli-rolli o'yinlarni amalga oshirish vositalari va unga rahbarlik qilish ishlari o'rganildi.

Olib borilgan tajriba-sinov natijalari o'rganib chiqilganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, Surxondaryo viloyati Termiz tumanida joylashgan xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 16-maktabgacha ta'lim muassasasida 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirish vazifalari turli xil syudjetli rolli o'yinlar mashg'ulotlari davomida o'tkazildi.

O'tkazilgan tadqiqotimiz natijasida 3-4 yoshli bolalarda shaxs sifatida shakllanishi, atrof-olamni bilishi, boshqalar bilan muloqotga kirishish, ko'nikma va malakalari syujetli-rolli o'yinlar orqali 3-4 yoshli bolalarda o'zga qahramonning ma'lum bir rolini olib, tengdoshlari bilan o'yinda birgalikda jamo bo'lib harakat qila olish ko'nikmalari shakllantirildi.

Xulosa va tavsiyalar

Maktabgacha yoshidagi bolalarning o'yinlari atrofda narsa va xodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Boshqacharoq qilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya qurolidir. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, shaxsni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari xaqida gapirar ekanmiz, albatta ularning o'yinchoqlari masalasiga ham to'xtab o'tish kerak. Bolalarga o'yinchoqlarni berishda ularning yosh xususiyatlarini, taraqqiyot

darajalarini va ayni paytda ularni ko'proq nimalar qiziqtirishini hisobga olish kerak.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallash uchun odam avvalo yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, o'quvlar va elementar tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola o'yin faoliyati orqali erishadi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik susaya boshlaydi, nima yomonligini qanday harakat to'g'ri-yu, kanday harakat noto'g'riligini aniqlashga intiladilar. Bu ishda bolalarga hamisha yordam berish kerak, ularning bunday harakatlarini qo'llab - quvvatlash lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasasida asosan syujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarni o'ynaydilar. Rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarda bolalar tevarak atrof-muhitdagi narsalarni aks ettiradilar. Ular o'zlarining turli o'yinlarida kattalarning oilaviy hayot sharoitlariga doir hodisalarni, mehnat faoliyatlarini, yirik tarixiy hodisalarini, kishilar orasidagi muloqot munosabatlari, urf - odatlar, bayramlarni aks ettiradi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning **syujetli va rollarga** bo'linib, o'ynaladigan o'yinlari deyarli hamma vaqt jamoa holda amalga oshiriladi. Syujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlar bolalarning ko'pgina psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'yin sharoitining o'ziyoq bolalar diqqatini atrofdagi narsa va hodisalarga faol yunaltirishini talab qiladi. Bu esa, o'yin faoliyati davomida bolalarni nihoyatda faollashtiradi, ya'ni ular ko'zatuvchan, tez esda olib qoladigan, har bir narsani atroflicha va chuqur tahlil qiladigan bo'ladilar.

Syujetli va rollarga bo'linib, o'ynaladigan o'yinlar o'yin jarayonida bolalarning bir-birlari bilan faol munosabatda bo'lishlariga imkon yaratadi. Bu bolalar nutqining tez rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumki, syujetli va rollarga

bo'linib o'ynaladigan o'yinlarning o'z qonun - qoidalari mavjud. Bu qonun - qoidalarga rioya qilishda bolalar o'z iroda kuchlarini ishga soladilar. Binobarin, o'yin faoliyati davomida bolalarning irodaviy sifatleri ham rivojlanadi.

Turli yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarining o'yin faoliyatlarini aks ettirish, ya'ni psixik jarayonlarini, aqliy imkoniyatlarini, shaxsiy psixologik sifatlarini, harakter xislatlarini tarkib toptirib, rivojlantiradi. SHu narsa harakterliki, maktabgacha yoshdagi bolalarning turli - tuman o'yin faoliyatlari sekin - astalik bilan ularni o'qish faoliyatiga tayyorlaydi.

Tavsiyalar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yinlarni shakllantirishda barcha o'yin turlarini amaliyotda bajarib borish lozimligini tavsiya etamiz.
2. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'ynaladigan o'yinlar bola uchun ermak, quvonch manbaigina emas, uning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o`stirishga xizmat qiladigan o'yinlar o'ynalishi maqsadga muvofiqdir.
3. Maktabgacha ta'lim muassasida turli xil mazmundagi qiziqarli o'yin to'garaklar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.
4. Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyachilari tashabbusi bilan maktabgacha ta'lim muassasalariaro turli xil o'yin tadbirlarni uyushtirish.
5. 3-4 yoshli bolalarda ertak qahramonlari yordamida bolalarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik hamda insoniylik xislatlarini tarbiyalab borish.
6. 3-4 yoshli bolalarda syujetli-rolli o'yinlarni shakllantirishda teatrlarga, turli joylarga sayoxatlar uyushtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch.-T.: O'zbekiston, 2008.- 61 b
2. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi" Toshkent, 1996 yil.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent, 1998 yil.
4. Ta'lim to'g'risidagi qonun. Toshkent, 1997 yil
5. "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi T.: O'zbekiston 2010 y
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent, 1997 yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limga qo'yilgan Davlat talablari. Toshkent
8. Mirjalilova S.M, Rasulova T, "Bolajon" tayanch dasturi. Toshkent 2010y
9. O.Xasanboeva va boshqalar "Oilada barkamol avlod tarbiyasi" T: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2010 yil
10. SH.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika" darslik T.: "Fan va texnologiya", 2012 y
11. Negaeva V.G. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatga tayyorlash", Toshkent 1985 yil.
12. Loginova V.I. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi", Toshkent, O'qituvchi 1991 yil.
13. Xalizova N.B, Kurogkina N.A, Pantyuxina G.V, "Bolalar bog'chasida loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash" Toshkent, O'qituvchi 1991 yil.
14. Yusupova P. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" Toshkent,O'qituvchi 1993 yil.
15. Yusupova P. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" Toshkent,O'qituvchi 1995 yil.
16. Murodov R. "Ta'lim-tarbiya va egizak" Toshkent 1993 yil.
17. Nishonova S. "Komil inson tarbiyasi", Toshkent istiqlol. 1993 yil.
18. Inomova M "Oilada bolalarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi", Toshkent 1998 yil.

19. Xasanboeva O, “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi”, Toshkent 2006 yil.
20. G’aybullaeva M, G’aybullaeva D, “Bir yoshdan uch yoshgacha bo’lgan bolalar tarbiyasi”, Toshkent 2006 yil.
21. Raximova R, “Tarbiyachiga ming bir maslahat”, Toshkent 2007 yil.
22. Shodmonova Sh, “Maktabgacha pedagogika” Toshkent 2008 yil.
23. Ziyomuhammadov B, “Pedagogik mahorat asoslari”, Toshkent 2009 yil.
24. Barotov Sh.R. Kichik yoshdagi o’quvchilar faoliyatini baholash.-T.: «O’qituvchi», 1992.
25. Karimova V.M. O’zbek yoshlarida oila tugrisidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi. (Psix. fan. dokt. diss.). –Farg’ona, 1994.
24. Kodirov B.R. Iste’dodli bolalar va ularni tanlash metodikasi. - T., 1992.
25. N.M. Qurbonov Milliy tarbiya T.: Ma’naviyat, 2007y
26. To’raqulov E. Raximov S. Abu Rayhon Beruniy: ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida. - T.: «O’qituvchi», 1992.
- 27.«O’zbekistonning iste’dodli bolalari» Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalar. qiskacha bayoni.(Mas’ul muharrir B.R.Kodirov).–Termiz, 1992
28. Goziev E. Psixologiya fani va kadrlar tayyorlash muammosi. GG «Xalq ta’limi» jurnali, 1996, №2. 44-52-b.
- 29.Goziev E. Tafakkur psixologiyasi. - T.: «O’ituvchi», 1990.
30. Goziev E., Tursunov L., Ikromov J. XXI asr va shaxs kamoloti. «Xalq ta’limi» jurnali, 1996, №5.

Elektron ta’lim resurslari

31. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
32. www. pedagog. uz
33. www. Ziyonet. uz
34. www. edu. uz

